



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKUL`TETI

«Himoyaga ruxsat etildi»

Filologiya fakulteti dekani, f.f.n.

dots. _____ Q.Sidiqov

«__» _____ 2019 й.

NEMIS VA FRANTSUZ TILLARI KAFEDRASI

5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O`QITISH (NEMIS TILI)

YO`NALISHI IV KURS 401 - GURUX TALABASI

Kamolova Nilufar Dilshod qizining

«FONETIKA VA FONOLOGIYANING O`ZARO

MUNOSABATLARI TAHLILI»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

BMI rahbari: _____

Nemis va fransuz tillari kafedrası

Prof. S.Saydaliev

mudiri _____ Z.Tursunov

«__» _____ 2019 й.

Namangan - 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. FONETIKA TILNING TOVUSH TIZIMI va NUTQ TOVUSHLARINI O`RGANUVCHI FAN	8
I.1. Til tovushlarini o`rganish aspektlari	8
I.2. Fonetika va uning birligi.....	23
I.3. Fonetikaning bo`limlari	25
Birinchi bob bo`yicha xulosa.....	31
II-BOB. SO`ZNING FONOLOGIK MODEL: ILMIY AN`ANALAR VA ZAMONAVIY KONTSEPSIYALAR	33
II.1. Fonologiya tilshunoslikning bir bo`limi.....	32
II.2. Fonema umumiylikdir	42
II.3. Fonetika va fonologiyaning o`zaro bog`liqligi.....	49
Ikkinchi bob bo`yicha xulosa.....	54
Umumiy xulosalar.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	
Ilovalar.....	

Mavzuning dolzarbligi. Til doimo odamlar orasidagi munosabatlar kompleksini asosiy elementi bo`lib kelgan. Shu bois insonlar o`zlari mansub bo`lgan madaniyat, mentalitet, qadriyatlarining ham ifodachilaridirlar. Shu jihatdan til va madaniyatlararo tolerantlik masalasiga doimo jiddiy e`tibor qaratib kelingan. Insonning madaniy-lisoniy o`zligini anglashi o`z ona tili va madaniyatiga hamda o`zga xalqlarning tillari va madaniyatiga nisbatan yuqori darajadagi hurmat va lisoniy tolerantlik hisoblanadi.

Tillararo aloqa insonlarning o`zaro munosabat jarayonlari bilan chambarchas bog`liq bo`lib, bilingvizm bunday lisoniy aloqalar uchun eng maqbul imkoniyatdir. Ushbu jarayonda shaxs bir necha lisoniy sistemalar sohibiga aylanadi. Nemis va o`zbek tillarining o`zaro ta`siri bunga yorqin misol bo`la oladi.

Jahon miqyosida filologik yo`nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda til aloqa jarayonida jonli turli tillar (masalan, nemis va o`zbek tillari) nutqidagi so`zlarning fonologik modelini aniqlash muhim yo`nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada, jumladan, quyidagilar dolzarb ilmiy vazifalar hisoblanadi: orfoepik muammolarning leksik material bilan chambarchas bog`liq tarzda yechimini asoslash; mintaqalardagi jonli til nutqi materiali, ommaviy axborot vositalari va tegishli manbalar asosida eng ko`p qo`llaniladigan milliy realemalarning ro`yxatini tuzish; jonli til nutqida milliy leksik birliklar fonologik modellarining namoyon bo`lish tamoyillarini ta`riflab berish; jonli til nutqidagi milliy realemalarning tasnifini paradigmatic nuqtai nazaridan qo`llanish chastotasini hisobga olib taqdim etish, aktsentologik xususiyatlarini asoslab berish va ularning o`ziga xos alohida talaffuz holati hamda uni unifikatsiyalash (bixillashtirish) bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu masalalarni to`g`ri va ilmiy hal qilish uchun tilning tovushlar tizimi bilan shugullanadigan sath aspektlari bo`lmish fonetika va fonologiyaning o`zaro munosabatlarini tahlil etish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. So`zlarning fonetik jihatlari va fonologiya masalalari turli nuqtai nazardan I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdlari – N.V.Krushevskiy, V.A.Bogoroditskiy va L.V.Shcherba tadqiqotlarida

yetarlicha ishlab chiqilgan. Fonetika va fonologiya taraqqiyotida N.S.Trubetskoy, A.A.Reformatskiy, V.V.Shevoroshkin, R.I.Avanesov, L.R.Zinder, L.L.Bulanin, M.V.Panov, YE.A.Brizgunova, S.O.Tananayko, V.Ya.Plotkin, V.A.Chirikba, N.A.Baskakov, V.I.Bolotov, shuningdek, o`zbek tilshunoslari A.N.Kononov, A.A.Abduazizov, M.Mirtojiev, G.X.Boqieva, M.Yusupov, K.A.Saparova, A.M.Shcherbak, N.M. Avazbaev, S.D. Rizaev, K.S. Taymetov, M.A. Salieva tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Taniqli fonolog A.A. Abduazizov ta`kidlashicha, fonetik birliklarning fonologik birliklar va ularning turlari bilan birgalikdagi ierarxiyasi aniqlashtirilganda, ular orasidagi o`zaro bog`liqlik va bir-birini taqozo etishni nazarda tutish zarur.

Tillarning qiyosiy-tipologik tahlili masalalari Ye.D.Polivanov, V.V.Reshetov, I.A.Kissen, I.U.Asfandiyarov, A.V.Mirtov, A.A.Abduazizov, V.M.Beldiyan, G.X.Boqieva, M. Djusupov kabi olimlar tomonidan o`rganilgan.

Olimlarning ta`kidlashicha, nemis tilining bo`limlari: fonetika, morfologiya va sintaksisda o`zbek tilida mavjud bo`lmagan jihatlar uchraydi. G.X.Boqieva konsonantizm materiali asosida orfoepik ruscha talaffuz uchun mashqlar o`tkazish uslubini yaratgan (Bakieva G.X. Metodika provedeniya trenirovochnyx uprajneniy dlya vyrabotki orfoepicheskogo russkogo proiznosheniya. – Tashkent: O`qituvchi, 1989. – 86 s.). M.Djusupov qozoq va rus tillari tovushlarining singarmonik va nosingarmonik tizimlarini qiyosiy o`rgangan (Djusupov M.D. Singarmonicheskiy zvukovoy stroy v sopostavlenii s nesingarmonicheskim (na materiale kazaxskogo i russkogo yazykov): Avtoref. diss. dokt.filol.nauk. – Alma-Ata, 1992. – 38 s.).

N.A.Baskakov turkiy tillarning fonologiyasini tarixiy-qiyosiy tomondan tadqiq etgan. N.Avazbaev ayrim hind yevropa va turkiy tillar asosida flektiv va agglyutinativ tillardagi so`zlarning fonotaktik strukturasi o`rgangan. K.S.Taymetov o`zbek, ingliz, yapon tillari asosida konsonant birikmalarni (Avazbaev N. Fonotakticheskaya struktura slova vo flektivnykh i agglyutinativnykh yazykax (na materiale nekotorykh indoevropeyskix i tyurkskix yazykov): Avtoref. diss. doktora filol. nauk. – Sankt-Peterburg, 1992. – 33 s.) o`rgangan.

M.A.Salieva o`zbek va rus tillaridagi so`zlarni qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil etgan. Leksikologiya masalalari L.L.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, D.N.Shmelev, E.Begmatov, I.U.Asfandiyarov, D.U.Xoshimova kabi rus va o`zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Biroq shuni ham e`tirof etish kerakki, til tovushlari va leksik tizimining o`zaro ta`siri muammolari hanuzgacha o`z yechimini topmagan.

Hozirgi zamon tilshunoslari lisoniy aloqalarni maxsus leksikografik tavsiflash ob`ekti ekanligini e`tirof etishmoqda. Bilingvizm muammolari U.Vaynrayx, V.P.Belyanin, Yu.D.Desheriev, I.G.Balxanov, Ye.M.Vereshchaginning ilmiy asarlarida ko`rib chiqilgan. U.Vaynrayx, V.N.Djaparidze, G.X.Boqieva, V.M.Bel`diyan, M.Djusupov tadqiqotlari interferentsiya muammolariga bag`ishlangan. Mazkur tadqiqotda I.A.Boduen de Kurtenening chet tillarining boshqa tilning fonetik tabiatiga ta`siri haqidagi mulohazasi muhim hisoblanadi, demak, nemis va o`zbek tillarining fonetik va leksik jihatdan o`zaro ta`siri xususida fikr yuritish mumkin.

A.A.Reformatskiy ta`kidlaganidek, ular «fonologizatsiyalashish» («elakdan» o`tkazilishi sababli) va grammatikalizatsiyalashuvga yuz tutganliklari bois, mazkur turdagi «tildan tashqarida qolgan lisoniy hodisalar» «tilga qabul qilina boshlaydilar, keyin esa, qoidalardan mustasnoqlik muhriga ega bo`lishsa-da, to`liq lisoniy huquqqa erisha oladilar».

Fonetika, fonologiya, lisoniy muloqot sohalaridagi tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish hozirda dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga molik.

Tadqiqotning maqsadi til aloqa jarayonida jonli nemis tili nutqidagi o`zbek tilidagi so`zlarning fonologik modelini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: orfoepik muammolarning leksik material bilan chambarchas bog`liq tarzda yechimini topish – aynan shuning uchun O`zbekiston hududida nemis va o`zbek tillarining o`zaro jonli aloqada keng ko`lamda qo`llanuvchi leksika maxsus orfoepik tadqiqot ob`ekti hisoblanadi; O`zbekistonda jonli nemis tili nutqi materiali, mavjud lug`atlar asosida eng ko`p qo`llaniladigan o`zbek tilidagi leksemalarining ro`yxatini tuzish;

Fonetika va fonologiya aspektlari bir-biri bilan bog`liqmi yoki bog`liq emasmi degan savolga javob berish.

Tadqiqotning ob`ekti Fonetika va fonologiya masalari yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlar asosida ularning o`zaro munosabatlari.

Tadqiqotning predmeti fonetika va fonologiya aspektlarining bir-biri bilan bog`liqlik va bog`liq emaslik holatlari.

Tadqiqotning usullari. BMIda mantiqiylik, tizimlilik, statistik, qiyosiy tahlil, suhbat, kuzatuv, so`rovnoma, intervyu kabi tadqiqot va tahlil usullari qo`llanilgan. Shuni ta`kidlab o`tish joizki, maxsus fonologik adabiyotlarda statistik metodga V. Matezius, undan so`ng N.S. Trubetskoy katta ahamiyat berganlar. Ularning fikricha, “fonologiya sohasida statistika ikki xil ahamiyatga ega: bir tildagi ma`lum fonologik unsurlar (fonemalar, fonemalar birikmalari, ma`lum tipdagi morfema va so`zlarning chastotasi; mazkur unsurlarning funksional yuklanganlik va ma`lum fonologik oppozitsiyalar darajasi”. Birinchi masalani hal etish uchun bog`langan matnlar, ikkinchisi uchun esa lug`at.

BMIning **ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat: fonetika va fonologiya aspektlari, ularning mohiyati va mazmuni mavjud ilmiy tadqiqot ishlari asosida tartibga solindi, tanqidiy va tahliliy o`rganildi va til o`rganish amalari uchun hulosalar chiqarildi va amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Tilning talaffuz normalarini egallash nutq faoliyatining asosini tashkil qiladi va uning turlari uchun muhim ahamiyatga ega. Agar gapiruvchi fonetik normalarga amal qilmasa, tinglovchi uni yomon tushunadi yoki mutlaqo tushunmaydi.

Agar tinglovchida talaffuz ko`nikma va malakalari shakllanmagan bo`lsa, u nutqni tushunmaydi yoki qiyinchilik bilan tushunadi.

O`qish va yozish jarayonlari uchun ham talaffuz ko`nikma va malakalari muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham olmon tili talaffuziga o`rgatishda nutq faoliyati turlarining fiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

BMIning **amaliy ahamiyati** shundaki, BMI materiallaridan oliy ta`lim tizimida hozirgi zamon nemis tili fonetikasi va leksikologiyasi, qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik bo`yicha maxsus kurslarning mashg`ulotlaridan, tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari fanlaridan referat, kurs ishi yozishda foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi. BMI tarkibi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. BMIning hajmi 60 betni tashkil etgan.

I-BOB. FONETIKA TILNING TOVUSH TIZIMINI, NUTQ TOVUSHLARINI O`RGANUVCHI FAN

1.1. Tilning tovush tomonini o`rganish aspektlari

Til ham og`zaki, ham yozma nutq shaklida reallashadi, yashaydi, nutq madaniyati bu har ikki shaklni ham nazarda tutadi. Tilning bu ikki shakli barcha tasviriy tilshunoslik fanlarida o`rganiladi, shunday ekan, nutq madaniyati bu fanlar bilan bevosita munosabatdadir. To`g`rirog`i, nutq madaniyati fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, leksikografiya, fonologiya kabi barcha tasviriy tilshunoslik fanlariga asoslangan holda ish ko`radi. Nutqdagi kommunikativ sifatlarning yuzaga kelish mexanizmlarini o`rganish va baholashda ayni shu fanlarda aniqlangan ma`lumotlarga suyaniladi.

Ma`lumki, kishilar tilning ayrim birliklari (*fonemalar, ayrim so`zlar, grammatik vositalar*) yordamida fikr almashmaydilar, aksincha, til butun bir sistema sifatidagina mavjuddir. Til birliklari: *fonemalar, morfemalar, so`zlar* faqatgina yaxlit til sistemasining ichida o`z funktsiyalarini bajaradilar. Demak, til o`zaro uzviy bog`liq bo`lgan va bir-birini taqozo etadigan material birliklarining yig`indisidan tashkil topgan, o`ziga xos strukturaga ega bo`lgan murakkab sistemadir. Til sistemasini tashkil etgan til birliklarining o`zaro munosabati, bir-biri bilan bog`lanish qonun-qoidalari tilning strukturasi tashkil etadi.

Har bir konkret tilning negizini tashkil etgan tovushlar sistemasi, lug`at sostavi va grammatik qurilishi til sistemasini tashkil etadigan asosiy qismlardan iboratdir. Til sistemasini tashkil etgan elementlar (*tovushlar, so`zlar va grammatik formalar*) har bir tilning qonun va qoidalari asosida birikib, butun bir til sistemasini tashkil etadi. Til sistemasini tashkil etgan elementlarning o`zaro munosabati va bir-biri bilan bog`lanish qonuniyatlari nihoyatda murakkab va ko`p qirralidir. Garchi til yaxlit sistema bo`lsa-da, bu sistema ichida o`ziga xos mustaqillikka ega bo`lgan, til sistemasining tarkibiy qismlari bo`lgan yaruslar mavjuddir. Har bir yarusning o`z birliklari va kategoriyalari bo`lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Til sistemasini tashkil etgan asosiy yaruslar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik yarus.
2. Lug'at yarusi.
3. Grammatik yarus.

Fonetik-fonologik yarus. Tilning tovush sistemasi nutq tovushlaridan tashkil topadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovush materiyasida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush sistemasini turli tomondan o'rgapish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til sistemasida bajaradigan funktsiyasiga ko'ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko'ra tabiatda paydo bo'ladigan tovushlarning bir turidir. Shuninguchun tovushlar sistemasinn o'rganishda akustik nuqtai nazardan ham yondashiladi. Ammo inson foydalanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq, kishining asab (nerv) sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun tovushlar fiziologik (biologik) nuqtai nazardan ham o'rganiladi. Nihoyat, tovushlarni til sistemasida bajaradigan funktsiyasi nuqtai nazardan ham o'rganish mumkin, Chunki tovushlar til sistemasida o'z hollaricha mavjud bo'lmaydi. Ular so'zlarni yasashda va fikr almashish protsessini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Tovushlarning akustik (fizik) va fiziologik (biologik) xususiyatlarini **fonetika** fani o'rganadi. Tovushlarning til sistemasida bajaradigan funktsiyalarini esa **fonologiya** o'rganadi.

Tilshunoslar fonetika va fonologiya muammolariga murojaat qilgan, zero bu fonetik qonunlar ta'sirini so'zni talaffuz etmasdan va eshitmasdan turib, tushunarli nutqiy muloqot qilish mumkin emas, muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun talaffuz etilayotgan so'zni aytilishiga ko'ra boshqa so'zlardan farqlash muhimdir. Shu sababdan tilshunoslikka oid sohalar orasida fonetika alohida o'rin tutadi va insonning nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy tabiatini hamda uning psixologik xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisalar bilan bog'liq holda o'rganadi. Fonetika til tovushlari, barcha xildagi tovush birliklarining qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etadi, bunda nutq tovushini akustik, fiziologik va ijtimoiy jihatlarining uzluksiz birligi sifatida talqin etadi.

Fonetika - grekcha *phone* "tovush" soʻzidan olingan boʻlib, tilshunoslikning nutq tovushlarini oʻrganadigan boʻlimidir. Nemis tili fonetikasi shu tildagi *fonemalar tizimini*, ularning nutq jarayonida hosil boʻlishini, aytilishi (*artikulyatsiya*) va eshitilishini (*akustika*) tovush oʻzgarishlarini, *soʻz va morfemalarning* maʼnolarini ajratishdagi ahamiyati kabilarni tekshiradi. Shuningdek, mazkur boʻlimda *boʻgʻin* va *urgʻu* singari tilning fonetik tarkibi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan hodisalar ham oʻrganiladi. Shunga koʻra *fonetika*, bir tomondan, *tilshunoslikning fonologiya, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, dialektologiya (shevashunoslik), grammatika* boʻlimlari bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, *fizika (akustika boʻlimi bilan) va fiziologiya* sohalari bilan aloqadordir.

Chet til oʻqitish metodikasining mutahasislaridan biri, nemis tili oʻqitish muammolariga bagʻishlangan koʻplab ishlar muallifai S.Saydaliyev “Chet til oʻqitish metodikasidan ocherklar” kitobida yozganidek *fonetika* tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. U nutq tovushlari, prosodik hodisalar va ularning fizilogik, akustik va lingvistik xususiyatlarini oʻrganadi. Chet tilni oʻrganish uchun fonetikaning ahamiyati katta. Maʼlumki tillarning fonetik tizimi bir biridan farq qiladi. Til talaffuzini oʻrganish uchun albatta shu tilning fonetik tizimini bilish zarur.

Chet til darslarida oʻquvchilar quyidagi talaffuz qilishda xatolarga yoʻl qoʻyishi tabiiy. Talaffuzdagi tipik xatolarni ikki guruhga boʻlish mumkin.

1. Fonetik xatolar.
2. Fonologik xatolar

Fonetik xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Olmon unli va undoshlarining talaffuzidagi muskulning tarang boʻlmagan holati.
2. Olmon tilidagi jarangsiz undoshlarning urgʻuli boʻgʻinda kuchli nafas bilan talaffuz qilmaslik.
3. Olmon tilidagi jarangli undoshlarning soʻz va boʻgʻin boshida va jarangsiz undoshlardan keyin yarim jarangli emas, balki toʻla jarangli talaffuz qilish.
4. Soʻz va boʻgʻin oxirida R - undoshini til uchida talaffuz qilish.

5. Sonor tovushlarni qisqa unlilardan keyin qisqa talaffuz qilish.
6. Soʻzlarda urgʻuni notoʻgʻri qoʻyish.

Yuqoridagi fonetik xatolar nutqni tinglayotganda tushunmovchilikka olib kelmaydi. Agar oʻzbek oʻquvchi nemischa [t] tovushini urgʻuli boʻgʻinda kuchli nafas chiqarmasdan talaffuz qilsa, nemis millati vakili uni tushuna oladi, faqat bu holda aksent (olmon tiliga xos boʻlmagan holat, ona tilining salbiy taʼsiri) eshitiladi. Xatolarning bunday turlari nemis tili artikulyatsion baza xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan xatolar hisoblanadi.

Fonologik xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Unlilarning choʻziq va qisqaligini farq qilmaslik. Masalan,
Staat – Stadt, fühlen – füllen, kam – Kamm, ihn – in,
Saat – satt, Haaren – harren
2. Olmon tili afrikatlarini oʻzbek tilidagi monoftonglar bilan almashtirish, Masalan, [pf] oʻrniga [p] yoki [f] qoʻllash: Pflücken – plücken – flücken.
3. Oe, ue, a, y fonemalarini oʻzbek tilidagi Y, y undoshlari bilan almashtirish.
4. Diftonglarni monoftonglar bilan almashtirish.
5. Olmon tilidagi qisqa unlilarni kuchsiz qaytish bilan talaffuz qilish.

Masalan: Stadt (STAAT)

Yuqoridagi kabi xatolar soʻzlarning maʼnosini butunlay oʻzgartirib yuboradi. Natijada tushunmovchilikka olib keladi. Bu xatolar til fonologik istemasining xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlib, taʼlim jarayonida ularga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi.

Fonetika va talaffuz tushunchalari bir biridan farq qiladi. Fonetika atamasi quyidagi maʼnolarni ifodalaydi;

1. Tilning tovush tuzilishi (tovushlar, tovush birikmalari, urgʻu, pauza, intonatsiya).
2. Tilshunoslikning boʻlimi sifatida tilning tovush tizimini oʻrganuvchi fan.

Talaffuz deganda quyidagilar nazarda tutiladi;

- a) nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilish.
- b) maʼlum til tovushlari tizimining talaffuz normalari yigʻindisi.

Talaffuzga o`rgatishda til hodisalarining quyidagi fonetik xususiyatlarini hisobga olish zarur;

- 1) tilning tovushlar tizimini,
- 2) tilning bo`g`inlar tuzilishini,
- 3) so`z urg`usini,
- 4) intonatsiya`ni.

Zamonaviy metodikaning asosiy maqsadi o`quvchilarni tilning tovushlar tuzilishi haqida bilim berish emas, balki tovush, tovush birikmalari hamda jummalarni to`g`ri ohang bilan talaffuz qilishga o`rgatishni taqozo qiladi, ya`ni o`quvchilarda fonetik bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish lozim.

So`z va ularning grammatik shakli va lug`aviy ma`nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi tovush tipi fonema deb ataladi. Har bir fonema o`z ifodasini konkret tovushda topadi. Tovush fonemaning so`zlovchi tomonidan nutqda qo`llanilishidir. Fonema har doim ma`lum tovushni ifodalaydi, ammo har qanday tovush ham mustaqil fonema bo`la olmaydi.

Masalan, *Regen* so`zi kichik tilda hosil bo`ladigan [R] yoki til uchida talaffuz qilinadigan [r] bilan aytilishi mumkin. Ular so`zning ma`nosini o`zgartirmaganligi uchun bir fonemaning ikki variantlari (ko`rinishi) hisoblanadi. Tilning fonemalari yig`indisi shu tilning fonemalari tizimini tashkil qiladi.

S.Saydaliyev nemis tili darslarida tovushlarni talaffuz qilishda transkripsiyaga katta ahamiyat qaratishni taklif etadi.

Transkripsiya deganda qayta yozish, ya`ni tovushlar talaffuzining yozuvda ifodalovchi maxsus yozuv tushuniladi. Transkripsiyada har bir belgi bir tovushni yoki bir fonetik hodisani ifodalaydi. Masalan, so`z va gap urg`usi, gap ohangi va pauzalar kabi og`zaki nutqdagi fonetik hodisalar yozuvda maxsus belgilar yordamida ifodalanadi. Bu o`qish va yozishni yengillashtiradi hamda til o`rganishni osonlashtiradi.

Artikulatsion baza deganda, ma`lum tilda tovush yasash uchun xarakterli bo`lgan artikulation holat va harakatlarning majmui tushuniladi. Har bir til uchun

artikulatsion baza bir-biridan farq qiladi. U haqida tushunchaga ega bo`lish shu tilni o`rganishda muhim ahamiyatga ega.

Chet til uchun xos bo`lgan nutq organlarining harakati va holati chet tilni o`rganayotganlar uchun tipik xatolar deb nomlanadigan hodisani keltirib chiqaradi. Ma`lum tilga xos bo`lgan artikulatsion xususiyatlar ularni ikkinchi til bilan qiyoslaganda namoyon bo`ladi. Olmon tili artikulatsion bazasini o`zbek tili bazasi bilan qiyoslaganda quyidagi xarakterli belgilar yuzaga chiqadi.

1. Butun nutq apparatining tarang holatda bo`lishi va ba`zi undoshlarning kuchli nafas bilan talaffuz qilinishi. Masalan, olmoncha Tat va o`zbekcha tat so`zlarining talaffuzini qiyoslang.
2. Unlilarning yasallishida tilning oldinga surilishi va til uchining pastki tishlarga tegib turishi. Qiyoslang: tut - TUT
3. Unlilarning sifat jihatidan reduksiyaga uchramasligi. O`zbek tilida unlilar ko`pincha sifat reduksiyasiga uchraydi. Odatda, tor unlilar keng unlilarga nisbatan ko`proq reduksiyaga uchraydi. Masalan, [i] va [u] unlilari.
4. So`z va morfema boshida nemis tili unlilari Knacklaut – qattiq zarblanish bilan talaffuz qilinadi. Masalan, an, Abend, in, immer.
5. Lablar harakati keskin bo`ladi. Qiyoslang: kuehl - KUL
6. Nemis tilida pastki jag` o`zbek tiliga nisbatan keskinroq va kuchliroq pastga tushadi. Qiyoslang: Tag - TAG
7. Til oldi t,d, s,z, undoshlari talaffuzida til uchi milkka tegadi. O`zbek tilida huddi shu tovushlar talaffuzida tilning uchi oldingi yuqori tishlarga tegadi.
8. Kishik til tovushning yasallishida ishtirok etadi. Bu hodisa o`zbek tilida kuzatilmaydi. Qiyoslang: Radio – RADIO

Tovush va tovush vositalari bo`lgan bo`g`in, urg`u, intonatsiya murakkab va ko`p qirralidir. Ular to`rt tomondan o`rganiladi:

(1) *artikulyatsion tomondan* –bunda nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakati o`rganiladi;

(2) *akustik tomondan* – bunda tovushlar va tovush vositalari qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi hisobga olinadi;

(3) *eshitib his qilish tomoni* – bunda nutq tovushlari, bo`g`in, urg`u, intonatsiyaning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi tekshiriladi;

(4) *fonologik jihatdan* – bunda nutq tovushlari va tovush vositalarining tildagi so`zlar, so`z formalari, frazalar, gaplarni bir-biridan farqlash, ularning ma`nosini kengroq ochish uchun xizmat qilishi o`rganiladi.

Chet til darslarida nutqni tinglab tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. O`z navbatida nutqni tinglash qobiliyati uch komponentdan tashkil topadi (J.Jalolov, T.Sattarov, S.Saydaliyev).

1. Fonematik (fonologik) tinglash qobiliyati.

2. Fonetik tinglash qobiliyati.

3. Intonatsion tinglash qobiliyati.

Fonematik tinglash qobiliyati nutq tovushlarining fonologik, (fonematik, ma`no ajratuvchi) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: olmon tilida unililar quyidagi fonematik xususiyatlariga ko`ra farqlanadi: cho`ziqlik-qisqalik; lablarning ishtirokiga ko`ra: lablanganlik-lablanmaganlik; til qatoriga ko`ra: til oldi-til o`rta-til orqa; tilning ko`tarilishiga ko`ra: quyi-o`rta-yuqori ko`tarilish; artikulyatsiyaning xususiyatiga ko`ra: stabil-boshqa holatga o`tuvchi, ya`ni monoftong-diftong.

Fonetik tinglash qobiliyati esa nutq tovushlarining fonetik (ma`no ajratmaydigan) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: portlovchi [p, t, k] tovushlarining kuchli nafas chiqarish bilan, so`z boshidagi unililarning qattiq zarblanishi bilan talaffuz qilinishi bunga misol bo`ladi.

Intonatsion tinglash qobiliyati esa jumlaning intonatsion strukturasi farqlash va uni tilning intonatsion qolipi bilan birlashtirish, aloqaga kiritishdan iboratdir.

O`rta maktab, akademik litsey va kasb-xunar kollejlari hamda nofilologik fakultetlarda asosan o`quvchi va talabalarning fonematik va intonatsion tinglash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish zarur. Chunki bu qobiliyatlarsiz nutqni tushunish va to`g`ri talaffuz qilish mumkin emas. Ushbu qobiliyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi o`quvchilar nutqida fonologik va intonatsion

xatolarni keltirib chiqaradi. Masalan: o`quvchilar olmon tili unlilarining cho`ziqlik va qisqalik belgilarini farqlamaydilar, natijada Staat-Stadt. Beet-Bett, ihn-in kabi so`zlarning ma`nosi noto`g`ri tushuniladi.

Yuqoridagi o`quv yurtlarida talaffuzga o`rgatish approksimatsiya (cheklanganlik) prinsipiga asoslanganligi uchun o`quvchilarning fonetik tinglash qobiliyatini o`stirishga alohida e`tibor berilmaydi. Chunki o`quvchining fonetik xatosi muomala jarayonini to`xtatib qo`ymaydi.

Fonetika nutq fiziologiyasini va nutq tovushlarining paydo bo`lishini o`rganadi. Kishilarning tovushi tovush paychalarning tebranishidan hosil bo`ladi. Paychalarning tebranish xususiyatiga qarab ovoz (un) yoki shovqin paydo bo`lishi mumkin. Agar tebranish bir tekis, bir maromda takrorlanib tursa, ovoz hosil bo`ladi: a, o, u kabi. Tebranish bir tekis bo`lmasa, shovqin paydo bo`ladi: d, k, sch, tsch kabi.

Tovushning eshitilishi haqidagi nazariya akustika deyiladi. Fonetika nutqning eng kichik birliklari - fonlar bilan shug`ullanadi. Fonlar uchta, ya`ni akustik, fiziologik, ijtimoiy jihatdan o`rganiladi. Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda, ulaming fizik xususiyatlari, quloqqa chalinish xususiyatlari tushuniladi. O`pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini tebratishi va nutq organlarida hosil bo`ladigan shovqin natijasida nutq tovushlari vujudga keladi.

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok yetuvchi qismlar nutq a`zolari deyiladi. Nutq a`zolarining jami nutq apparatini tashkil etadi. Bular diafragma, o`pka, kekirdak, ovoz paychalari, bo`g`iz, bo`g`iz qopqog`i, kichik til, tanglay, til, tish, labdir.

Nutq apparati uch qismdan iborat:

1. Ovoz paychalaridan pastki qism: o`pka, nafas olish yo`llari, kekirdak, diafragma.
2. Bo`g`iz. Xalqasimon va qalqonsimon tog`aylar bo`g`izda joylashgan. Bu ikki tog`ay o`rtasida ovoz paychalari o`mashgan bo`lib, ovoz paychalari harakati bilan

tovush paychalari ochilib-yopilib turadi. Natijada shunga muvofiq har xil tovushlar chiqadi.

3. Ovoz paychalaridan yuqoridagi qism: bo`g`iz qopqog`i, og`iz bo`shlig`i, burun bo`shlig`i, qattiq va yumshoq tanglay, til, kichik til, ustki va pastki tishlar, ustki va pastki lablar kiradi. Til eng harakatchan a`zodir. U til uchi, til oldi, til o`rtasi, til orqasi va chuqur til orqa qismlariga bo`linadi. Til uchi eng harakatchan nutq organidir.

Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o`rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so`zlar va gaplar, albatta, tovushlar tizimida o`z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o`rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o`z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko`ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko`ra tabiatda paydo bo`ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o`rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi.

Ammo, inson foydolanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o`laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun, tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o`rganiladi. Nihoyat, tovushlarni tildagi bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazaridan ham o`rganish mumkin, chunki tovushlar tilda o`z holicha mavjud bo`lmaydi. Ular so`zlarni yasashda va fikr almashish vositasini ta`minlab berishda muhim rol o`ynaydi.

Bizning fikrimizcha, fonologiyani fonetikaning bo`limi sifatida o`rganish maqsadga muvofiqdir, chunki fonemalar tovushlar orqali namoyon bo`ladi. I.A.Boduen de Kurtene va boshqa tadqiqotchilarning fonetika va fonologiya sohasidagi g`oyalari Peterburg va Moskva fonologiya maktablari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Tilning tovush vositalari morfema va leksema kabi lisoniy belgilar uchun qurilish materiali bo`lib xizmat qilgani bois, fonologik nuqtai nazardan abstrakt birliklar sifatida ta`riflanadi va ahamiyatga ega belgilar hamda turli variantlar sifatida tavsiflanishi mumkin.

Moskva fonologiya maktablari vakillari N.S.Trubetskoy g`oyasidan fonologik qaramaqarshiliklarning neytrallasuvi tushunchasini o`zlashtirgan hamda kuchli va zaif pozitsiyalarni farqlashga asosiy e`tiborni qaratgan holda, nafaqat bir fonemani ikkinchisiga qarama-qarshi qo`yuvchi differentsial belgilar, balki qarama-qarshi qo`yishlar bilan bog`liq bo`lmagan integral belgilarni ham hisobga oladilar. L.V.Shcherba nutqning tovush tasavvurlarini tadqiq etish fonetikaning vazifasi, deb hisoblaydi.

U fonema tushunchasiga mazkur tilning eng qisqa umumiy fonetik hodisa sifatida e`tirof etiluvchi, mazmunga ega hodisalar bilan birlashuvchi va so`zlarni tasniflovchi mazmun jihatini qo`shadi, bunda fonema nutqda o`zgarishsiz ajratilishi mumkin. Fonemaning turli ko`rinishlari real talaffuz etiladigan turli tovushlar kabi fonema orqali ifoda etiladigan alohida hodisadir. Aynan L.V. Shcherba o`zidan avvalgi tadqiqotchilarning izlanishlarini umumlashtirib, fonema deb atalgan lisoniy hodisa haqidagi bilimlarni tartibga soldi va fonema tahlili bo`yicha asoschi bo`ldi.

Fonetikaning bir necha ko`rinishlari bor: *nazariy fonetika, amaliy fonetika, segmental, supergmental fonetika va fonologiya.*

Fonetikaning to`rtinchi asosiy sohasi hisoblanmish *fonologiya* alohida fan sifatida qaraladi.

Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo`lgan morfologiya tilning tovush tomoni ancha murakkab hodisadir:

- a) har qanday tovushning fizik-akustik tabiati bor;
- b) har qanday nutq tovushining biologik asosi (nutq a`zolarining harakati va holati bilan bog`liq jihatlari) mavjud;
- v) har qanday nutq tovushlari talaffuz etiladi va eshitiladi.

Fonetik birliklarning ana shu jihatlarni o`rganish fonetikaning *fizik-akustik, anatomik-fiziologik, pertseptiv va lingvistik-funksional aspektlari* deb qaraladi.

Fizik-akustik aspekt. Eksperimental fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning fizik tabiatini tadqiq qiladi. Fonetik birliklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho`ziqligi kiradi. Tovushning ovoz, shovqin,

qo`shimcha (yordamchi) ton kabi komponentlari ham fizik- akustik omillar sanaladi.

Tovushning balandligi - tovushning un paychalari tebranishi chastotasiga bog`liq sifati. Ma`lum vaqt o`lchovida (masalan, bir sekundda) un paychalarining tebranish miqdori qancha ko`p bo`lsa, tovush shuncha baland bo`ladi yoki, aksincha, shu vaqt o`lchovi hisobida un paychalari qancha kam (siyrak) tebransa, tovush shuncha past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan, un paychalarining tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi bitta to`la tebranish sanaladi, ana shu bitta to`la tebranish bir gerts hisoblanadi, demak, baland ovozda gertslar miqdori ko`p (tebranish zich), past ovozda esa gertslar miqdori kam (tebranish siyrak) bo`ladi.

Nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to`lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko`ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so`z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg`u, intonatsiya, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she`riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi.

Tovush tembri - tovushning asosiy ton va yordamchi tonlar (oberton, partsial tonlar) qo`shilmasidan tarkib topadigan sifati. Tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko`rsatuvchi chastotalar formantlar deyiladi. Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat - spektograf yordamida aniqlanadi.

Tovush tembrining turli xil formantlarga ega bo`lishida bo`g`iz bo`shlig`i, halqum, og`iz bo`shlig`i va burun bo`shlig`i maxsus rezonatorlik (akustik) vazifasini bajaradi: bunday bo`shliqlarning turli shaklga kirishi, hajmi, undagi a`zolarining harakati-holati tovushning bo`yoqdorligini (sifat belgilarini) o`zgartirib turadi, shu tariqa fonemalarning o`zaro farqlanishi ta`minlanadi. Odatda, tovush

tembri unli fonemalarda muhim rol o`ynaydi: hamma unli fonemalarda ovoz bor, ammo ular bir-biridan tembri bilan farq qiladi.

Tovush cho`ziqligi - tebranishning oz yoki ko`p vaqt davom etishi.

Tovush cho`ziqligi ikki xil bo`ladi;

a) ***fonologik cho`ziqlik*** (birlamchi cho`ziqlik);

b) ***fonetik cho`ziqlik*** (ikkilamchi cho`ziqlik).

Fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a`zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o`rganadi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo`lish mumkin:

1) nutq a`zolarining anatomiyasi;

2) nutq a`zolarining fiziologiyasi;

3) nutq a`zolarining ijro kechimi.

Nutq a`zolarining anatomiyasi deyilganda shu a`zolarining shakli, tuzilishi, o`rni nazarda tutiladi. Bunday a`zolar quyidagi apparatlarga birlashadi: nafas apparati - o`pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko`krak qafasi. Bu apparat a`zolari tovush hosil qilish uchun zarur bo`lgan havo oqimini boshqa a`zolarga yetkazib beradi, shu ma`noda havo manbai sanaladi.

Lingvistik-funksional aspekt. Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, tilning ijtimoiy mohiyatini belgilashdagi ahamiyatini o`rganadi. Tilshunoslikda fonetikaning bu aspekti fonologiya deb ataladi. Bu haqida ikkinchi bobda fikr yuritiladi.

Fonetikaning *ob`ekti* tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari, bo`g`in, urg`u, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni o`z ichiga oladi.

Fonetikaning *maqsadi* fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o`rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi:

a) tovush, urg`u, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini o`rganish;

b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlarni va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish;

v) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish;

g) talabalarda fonetik tahlil ko`nikmalarini shakllantirish;

d) talabalarga shu sohada ishlagan fonetist-fonologlar haqida qisqacha ma`lumot berish.

Har qanday tilning fonetik birliklari dastlab ikki guruhga: *segment va supersegment birliklarga* bo`linadi:

a) segment birliklarga nutq tovushlari va bo`g`in kiradi. Bunday birliklar so`z yoki morfemalar tarkibida birin-ketin keladi, yotiq (gorizontal) yo`nalishda bir-biriga ulanib, zanjirsimon tarzda joylashadi. Masalan: kitob (nemischa das Buch) so`zidagi 5 ta tovush (o`zb. k,i,t,o,b; nem: b,u,c,h,) va o`zbek tilidagi ikkita bo`g`in (ki-tob) nemis tildidagi bitta bo`g`in (buch) segment birliklar, demak, shu so`z tarkibidagi qismlar sanaladi;

b) supersegment birliklarga urg`u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so`zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo`lib, ularni so`z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo`lmaydi.

Bo`g`in. Bir nafas to`lqinida aytiladigan tovush yoki tovushlar yig`indisi bo`g`in deyiladi. So`zda nechta unli bo`lsa, shuncha bo`g`in bo`ladi. Bir unli bir bo`g`inni hosil qila oladi. Bo`g`inlar tarkibi quyidagicha bo`ladi: s-undosh; v-unli.

v: O-pa, O-ma, o-der

vs: On-ke, En-te

cv: sa-ge

ccvcc- sport, spielt.

Bo`g`inning ahamiyati quyidagilardan iborat:

a) maktab o`quvchilarini o`qish va yozishga o`rgatish bo`g`inga asoslanadi;

b) she`riy misralarda bo`g`inlar tengligi alohida ahamiyat kasb yetadi;

v) so`zni ko`chirishda bo`g`inga asoslaniladi.

Bo`g`in tuzilishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: ochiq bo`g`in va yopiq bo`g`in.

Unli bilan tugagan bo`g`in ochiq hisoblanadi.

Undosh bilan tugagan bo`g`in yopiq hisoblanadi.

Urg`u. Nemis tilida urg`u odatda birinchi bo`g`inga (so`z o`zagiga) tushadi.

Masalan: 'schön, 'hören, das Land.

Urg`u ikki xil bo`ladi: so`z urg`usi va gap urg`usi.

1. So`z urg`usi. So`zdagi ma`lum bir unlining (yoki bo`g`inning) cho`ziqroq, ajratib, ta`kidlab aytilishidir. O`zbek tilidagi so`z urg`usi ko`chuvchan xarakterga yega bo`lib, asosan so`zning oxirgi bo`g`iniga tushadi: gul-gulzor-gulzorlar-gulzorlarimiz-gulzorlarimizni. So`zga qo`shimcha qo`shilishi bilan urg`u ko`chib boraveradi. Lekin barcha qo`shimchalar ham urg`u olavermaydi. So`z urg`usi ma`no farqlash uchun ham xizmat qiladi. Masalan: schön-schon

Demak, so`z urg`usi so`zdagi biror bo`g`inni ajratib, ta`kidlab aytish va ma`no farqlash uchun xizmat qiladi.

2. Gap urg`usi «mantiqiy urg`u», «logik urg`u», «ma`no urg`usi» kabi terminlar bilan yuritiladi. Gap urg`usi gapdagi biror so`zning ta`kidlab, ajratib aytilishidir:

Fonetik birliklarning tildagi vazifalari: (1) shakllantiruvchi va (2) tanishtuvchi vazifalarga bo`linadi. Bunda fonetik so`z tarkibidagi fonetik birliklarning shu so`zni va uning ma`nosini "tanib olish" va "eslab qolish" uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi.

Har bir tildagi so`zlar o`ziga xos *fonetik*, *morfologik* hamda *semantik* xususiyatlarga ega bo`lgani kabi, olmon tili fonetik va leksik sisitemasining ham o`ziga xos tomonlari mavjud.

Professor M.Umarxo`jaevning yozishicha, nemis tilida so`zlar markazlashgan, morfologik bog`langan urg`uga ega.

a) bosh urg`u – die Hauptbetonung;

b) ikkinchi darajali urg`u – die Nebenbetonung;

v) kuchli urg`u – die starke Betonung ;

g) kuchsiz urg`u – die schwache Betonung.

Masalan: 'Arbeit, 'arbeits'los, 'stock'finster, 'Eishockeynational'mannschaft.

Olmon tilida ba`zi so`zlar borki, ularda urg`u negizga bog`langan emas, balki

so'zlarga ajraluvchi va ajralmaydigan prefikslar, ba'zi suffikslar qo'shilishi bilan urg'uning o'rni o'zgaradi.

Tilning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an'anaviy tilshunoslikda uch qismga: fonetik, leksik va grammatik qismlarga bo'linishi va bu qismlarni o'rganadigan tilshunoslikning uchta bo'limining ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir.

Lisoniy sathlar sirasida fonetika eng kichik tashkil etuvchi va boshqa sathlar birliklari uchun moddiy (substantsial) asos bo'luvchi birliklarni beradigan sath sifatida ajralib turadi.

Insonning nutq faoliyati sezi a'zolari asosida xis qilinuvchi nutq birliklari - tovush yoki tovushlar tizimi vositasida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushlari o'zida uch jihatni birlashtirgan murakkab nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Ular quyidagilar:

a) talaffuz a'zolari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasi mahsuli (fiziologik jihat);

b) har qanday tovush kabi akustik tabiatga ega (fizik, akustik jihat); v) nutq tovushlari kishilarning axborot uzatish, kommunikatsiya vositasi (funktsional, sotsial, lisoniy jihat).

Nutq tovushlarining haqiqiy va biz uchun muhim jihati ularning funktsional aspektidir. Tilshunoslikda aytilgan uch jihatni yaxlitlikda o'rganish yoki ajratgan holda tadqiq qilish masalasida bir xillik yo'q. Ba'zilar nutq tovushlarining fiziologik tomoni biologiya fanining, akustik jihati fizika fanining o'rganish predmeti bo'lib, tilshunos uning faqat funktsional tomoninigana tekshirishi lozim degan goyani ilgari surishsa, ayrimlari har uchala jihat bir-biridan ajralmasdir, ularni yaxlitlikda o'rganmoq kerak degan aqidaga tayanadilar. Ana shu ikki qarash kurashi natijasida tilshunoslikda ikki - fonetika va fonologiya sohalari ajraldi. Pirovard natijada fonetika nutqiy variant (xususiylik)larni, fonologiya esa lisoniy invariant (umumiylik)larni tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'ladigan bo'lib qoldi.

1.2. Fonetika va uning birligi

Fonetikaning biligi tovush hisoblanadi.

Fonetika deganda eng kuyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o`rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika (rp.phonetikos – tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farkli o`laroq, nafaqat o`rganish manbaining funksional tomonini, balki nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossalarini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshi radi. U tovushlar bilan bog`liq bo`lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo`lim sifatida qarash noto`g`ri.

Fonetika tovushlar bilan bog`liq hodisalarni o`rganar ekan, demak, tovushlar hosil bo`lishida bevosita ishtirok etuvchi nutq organlari, ularning vazifalari, nutqda sodir bo`luvchi tovush o`zgarishlari va ularning sabablari, nutqning fonetik jihatdan bo`linishi va uning ahamiyati hamda tilning tovushlar tizimini qrganish uning vazifasiga kiradi. Har bir til o`z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo`lishi va talaffuzining o`ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog`liq masalalarni o`rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg`u va bo`g`in xususiyatlarini tekshiradi.

Fonetikada tilshunoslikning boshqa fan sohalari – adabiyotunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon buladi. Bu fanlardan farkli o`laroq, fonetika tovushlarga so`z, qo`shimcha va gaplarga moddiy qiyofa beruvchi til tizimi unsuri sifatida qaraydi. Fonetika nutqdagi tovush o`zgarishlari va almashinishini, urg`u va uning turlarini ham o`rganadi. Fonetikani o`rganish imlo (orfografiya), to`g`ri talaffuz (orfoepiya) me`yorlarini yaxshi o`zlashtirib olishda, adabiy va dialektal talaffuz farklarini aniqlashda, logopediya va surdopedogogikada nutqiy nuhsonlar diagnostikasi va ularni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega.

Fonetika yutuklari aloqa vositalarini tekshirish va ular samaradorligini oshirishda hamda nutqni avtomatik aniklashda muhim rolb o`ynaydi.

QOSHING!!

1.3. Fonetikaning bo`limlari.

Fonetika, avvalo, *umumiy, xususiy, qiyosiy, tavsifiy va eksperimental fonetikaga* ajraladi.

Umumiy fonetika. Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma xilligini o`rganuvchi bo`lim. Inson talaffuz apparatining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda nutq tovushlari hosil qilishning umumiy shartlari (masalan, undoshlarning hosil bo`lishi o`rniga ko`ra lab, til, bo`g`iz undoshlarining farkanishi, hosil bo`lish usuliga ko`ra portlovchi, sirg`aluvchi, portlovchi-sirg`aluvchi tovush xossalari aniqlanishi kabilar), shuningdek, tovushlarning umumiy akustik xossalari o`rganiladi. Qisman artikulyatsion, qisman akustik belgilarga tayangan holda nutq tovushlarining universal, shuningdek, farklovchi belgilariga tayanadigan ichki tasniflarini berish bilan ham shug`ullanadi.

Umumiy fonetika tovushlarning birikish qonuniyatlari, bir tovushning ikkinchisiga ta`siri xususiyatlarini (akkomodatsiya va assimilyatsiyaning turli ko`rinishlari), bo`g`inning tabiati, bo`g`inda tovushlarning birikish qonuniyatlari, bo`ginlarga bo`linish shartlari, so`zlarnish fonetik tuzilishi, qisman urg`u va singarmonizm masalalarini ham tekshiradi. Umumiy fonetika intonatsiya uchun qo`llaniladigan vositalar (tovush balandligi, kuchi (intensivligi), cho`zikdigi, tezligi (tempi), pauza, tembr kabi masalalarni ham tekshiradi.

Xususiy fonetikada yuqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy fonetika va zamonaviy, muosir fonetika, sinxron fonetika va diaxron fonetika, tasviriy fonetika va eksperimental fonetika kabi ko`rinishlarda ish yuritadi. Qiyosiy fonetikada bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo`lmagan tillarning, yoxud bir qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o`zgarishlar va boshqa hodisalar qiyosiy

aspektida tekshiriladi. Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oraligidagi vaziyatni egallaydi.

Qiyosiy fonetika. Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, o`zbek, qozoq, qirg`iz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi: "Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazыkov" (A.M. Щerbak, 1970), "Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov" (B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva, 1986) kabi ishlar shular jumlasidandir. Rogova M.K. Sopostavlenie foneticheskix sistem nemetskix i russkix yazыkov, Golubev A. P., Smirnova I. B. Sravnitel'naya fonetika angliyskogo, nemetskogo i frantsuzskogo yazыkov, sanigurskaya m.g. Kontrastivno-fonologicheskij analiz nemetskogo yazыka kak vtorogo inostrannogo na «fone» angliyskogo yazыka, Barry W. Phonetik und aussracheunterricht. Essen o. Allgemeine und angewandte phonetik.

Qiyoslash, o`zaro munosabatni aniqlash, chog`ishtirish – bu birinchi navbatda inson tafakkurining xususiyati, bilish faoliyatining universal asosidir. Taqqoslamay turib hech narsani, jumladan, tilni ham bilib bo`lmaydi. Har qanday qiyoslashning negizida asos yoki, boshqacha qilib aytganda, chog`ishtirilayotgan tillarning har birida nima bor, nima yo`qligini ko`rsatib turuvchi etalon mavjud bo`ladi. Kontrastiv tahlilda samarali foydalanish mumkin bo`lgan ba`zi etalonlarni belgilash mumkin: 1) fonetik-fonologik etalon (fon, intonatsiya ...); 2) lug`aviy etalon (leksemalar, frazemalar ...); 3) sintaktik etalon (sintaktik konstruktsiyalar); 4) uslubiy-psixolingvistik etalon (hayot tarzi, an`ana, qadriyat, dunyoqarashlarning aks etishi). Yirik tilshunos olim U.K.Yusupovning ta`kidlashicha, «fonologiya (fonetika)ning o`rganish ob`ektiga fonemalar (nutq tovushlari), bo`g`in, urg`u va intonatsiya kiradi. Aynan shu birliklar bilan aloqador til hodisalari qiyos uchun asos vazifasini bajaradi». Turli tillar chog`ishtirilayotganda fonetik sistema birligi sifatida bo`g`in asosiy o`rinda turadi. Ikki til fonetikasini kontrastiv jihatdan tasvirlaganda aynan bo`g`in etalon vazifasini bajarishi maqsadga muvofiqdir. Misol uchun nemis tilidagi sollen so`zi qo`sh kelgan undoshlardan so`ng (soll/en) tarzida bo`g`inga ajratiladi.

Dunyo tillarida har qanday bo`g`in undosh yoki unli tovush asosida shakllantirilishi aytib o`tilgan. Lekin o`zbek tilida ng tovushidan boshlanadigan so`z yoki bo`g`in mavjud emas. Xuddi shunday holat ingliz tilida ham kuzatiladi. Shu asosda til birliklarining artikulyatsiyasi va akustikasini o`rganish aynan bo`g`inlardan boshlanishi kerak. Buning uchun ona tili va o`rganilayotgan tilda mavjud bo`lgan bo`g`inlarni qiyoslab chiqish mumkin.

Faqat undoshlardan iborat bo`g`in turlari l, n, m sanor tovushlar ishtirokida hosil bo`ladi. Bugungi kunda kontrastiv tasvirning vazifalari har bir chog`ishtirilayotgan tilning morfemalariga xos bo`lgan semantik belgilarni aniqlash hamda bir xil yoki yaqin semalarga ega bo`lgan morfemalarni muvofiqlashtirishdan iboratdir. Masalan, nemis tilida ayol jinsi semasini ifodalovchi -in, -keit, -heit, -ung afikslari mavjud bo`lsa, rus tilida bu ma`noni ifodalovchi -itsa, -ka, -nitsa, -ья, -ovka, -enka, -imya, o`zbek tilida arab tili orqali o`zlashgan -a, bundan tashqari -xon, -oy, -bonu, -xonim, -gul kabi affikslarni ko`rishimiz mumkin. Leksik etalon bilan bog`liq kontrastiv tavsiflash nisbatan ko`p ishlab chiqilgan va puxta asosga ega. Bu zamonaviy tilshunoslikda so`zning nazariy asosi nisbatan to`liq belgilanganligi bilan izohlanadi.

Tilshunoslar tomonidan so`zlarni kontrastiv nuqtai-nazardan o`rganish asoslarini belgilab ko`rsatganlar. Unda leksik-frazeologik sistema doirasida so`z va frazeologik birliklarning uzviy bog`lanish kontseptsiyasi yotadi.

Professor M.E.Umarxo`jaev ham frazeologizmlar tarkibidagi so`zlar o`z ma`nosini yuqotgan ichi bo`sh (opustashennnye) ekanligini ta`kidlaydi. Bu tilni idrok etishda leksik birlik va frazeologizm o`rtasiga sun`iy chegara qo`yishni rad etadi hamda bir tildagi so`zni ikkinchi tilda frazeologizmlar bilan ekvivalent munosabatga kirishishini oddiy hol sifatida baholaydi (Umarxodjaev M. Asnovы frazeografii: avtoref. dis. ... d-ra filol. nauk. – M., 1981. – S. 10-28).

Akademik V.V.Vinogradov ta`limotiga muvofiq ular u yoki bu so`z leksemasi (akustemasi)da aniqlash mumkin bo`lgan ikki denotativ va uch konnotativ sema bo`yicha so`zlarning ma`no tiplarini ajratishadi. Bunda, asosan, umumiy ma`nosi saqlangan variantlar, ya`ni ekvivalentlar va ularning o`zaro

muvofiglik darajasi o`rganilsa, boshqa bir jihatdan birikmalar tarkibida leksemalar semantikasini quyidagi tarzda o`rganish mumkin. Masalan, chiqmoq fe`lli bir necha birikmalarning ingliz, nemis, frantsuz tillaridagi muvofigliklarini ko`rib chiqaylik: O`zbek tilidagi toqqa chiqmoq iborasi ingliz tilida to climb the mountain, nemis tilida den Berg besteigen, frantsuz tilida monter sur la montagne, minbarga chiqmoq ing. to mount the platform, nem. die Tribune betreten, frants. monter sur la tribune, taxtga chiqmoq to ascend the throne, den Thron besteigen, monter sur la trone.

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, ingliz tilida chiqmoq fe`li qatnashgan har bir birikmaga turlicha ifoda to`g`ri kelmoqda. Bu o`rinda har bir holatni alohida o`rganishga to`g`ri keladi. Nemis tilida esa bu uchala holat uchun ikkita shakl muvofiq kelmoqda. Frantsuz tilida barcha holatlarda bitta shakl ifodasi muvofiq kelmoqda. Shuning uchun mazkur birikmalarni o`rganishda bitta muvofiq shaklni ko`rsatish kifoyadir. Kontrastiv morfologiyada grammatik kategoriyalarni aniqlash va mavjud bo`lgan kategoriyalar (masalan, jins, son, zamon, kelishik, mayl va shu kabilar) taksonomiyasini tuzish mumkin. Taksonomik kategoriyalar birbiriga to`g`ri kelganda chog`ishtirishda birliklarning tur kategoriyalarini aniqlashda qo`l keladi. Masalan, ko`plik grammatik kategoriyasi tilda miqdor falsafiy kategoriyaning in`ikosidir. Ko`plik kategoriyasi barcha tillar uchun xos bo`lgan kategoriya hisoblanadi. Biror bir tilda ko`plikni anglatadigan maxsus grammatik kategoriya bo`lmagan taqdirda ham, barcha tillarda ma`lum bir miqdorni ifodalovchi so`zlar guruhi mavjud. Shuningdek, ma`lum bir miqdorni ifodalovchi leksik vositalar (oz-ko`p), kishilik olmoshlari tizimi (men-biz, u-ular) mavjud. Ko`plik grammatik kategoriyasi paradigmasi ko`p holatlarda birlik va ko`plik shakllarini tashkil qiladi (o`zbek, rus, ingliz tillarida), lekin birlik, ikkilik va ko`plik (arab), shuningdek, birlik, ikkilik, uchlik va ko`plik (papas va melaneziya tillari) kabi uch shaklli va to`rt shaklli paradigmalar ham mavjud. Olimlar tillarni kontrastiv jihatdan o`rganishning etaloni bo`lishi mumkin bo`lgan sintaktik asosni uzoq vaqt izlashdi. Hozirgi paytga kelib bu asos topildi, deyish mumkin.

Bu – soʻz birikmasi, sodda gap va qoʻshma gapning struktur sxemasi yoki modelidan iborat boʻladi. Biroq struktur sxemaning sanab chiqilishi, fikrdan ularni ajratib olish metodikasi, soʻzlarning leksik mazmunidan uzoqlashish darajasi va boshqalar hali-hanuz mavhum. Shuning uchun hozirgi kunda kontrastiv sintaksisda izlanish olib borishning asosi etalonlar topish va printsiptial nazariy masalalarni hal qilishga qaratilgan boʻlishi kerak.

Bu yondashuvni aniq bir misol bilan koʻrsatib oʻtamiz. V.Yu.Koprov nemis va rus tillaridagi subʼektning obʼektga aniq jismoniy taʼsir oʻtkazishini bildirgan konstruktsiyalarni oʻrgangan. Natijada bu kabi strukturalar rus tilida oltita, nemis tilida esa uchta ekanligi aniq boʻldi.

Oʻzbek tilida esa bu tipdagi konstruktsiyalarning 5 ta ekanligini koʻrishimiz mumkin. Tillar Konstruktsiya turi rus, ingliz va nemis tillarida turlichadir. Rus tilidagi shaxsiy faollikni ifodalovchi Мальчик сломал игрушку, ing. The boy broke the toy, nem. Das Kind hat ein Spielzeug gebrochen, oʻzbek tiliga Bola oʻyinchoqni buzdi kabi tarjima qilinadi. Ikki tarkibli shaxsiy nafaollikni anglatuvchi Igrushka slomana jumlasini The toy was broken, Das Spielzeug ist kaputt, Oʻyinchoq buzuq kabi tarjima qilinsa, uch tarkibli shaxsiy nafaollikni ifodalovchi gaplardagi Igrushka slomana malʼchikom jumlasini The toy was broken by the boy, Das Spielzeug wurde von einem Jungen zerbrochen, Oʻyinchoq bola tomonidan buzildi kabi oʻgiriladi. Shaxs noaniqligiga koʻra Shaxsi noaniqlik Igrushku slomali X Oʻyinchoqni buzishdi Ikki tarkibli shaxsi noaniqlik Ulitsu zatopilo X X Uch tarkibli shaxsi noaniqlik Vetrom slomalo derevo X Daraxt shamolda sindi Rus tilida ishlatiladigan oxirgi ikki struktur sxema faqatgina tabiat hodisalarining obʼektga taʼsirini koʻrsatishi mumkin. Tabiat hodisalarining nomi esa tarkibdan osongina tushib qoladi. Chunki harakatni bildirayotgan kesim oʻzining sememasi tarkibida tabiat hodisasi bilan bogʻliqlik semasiga ega: (shamol) sindirdi, (suv) choʻktirdi, (quyosh) kuydirdi va shu kabilar. Bizningcha, bunday yondashuvlar kontrastiv sintaksisning shakllanishida yaxshi natija beradi. Kontrastiv izlanishlarga nazar tashlaganimizda, tadqiqotlarni olib borish uchun nazariy asoslar aniqlashtirilganligini, amaliy ishlar tilning har bir sathida

bajarilayotganligini ko`rishimiz mumkin. Ammo shuni ham ta`kidlab o`tish lozimki, hamma sathda ham olib borilgan tadqiqotlar bir xil emas. So`z yasalishi, morfologiya, sintaksis kabi sathlarda kontrastiv tadqiqotlar salmoqli o`rin egallamaydi.

Tarixiy fonetika ma`lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o`rganadi, ya`ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o`zgarishlarni, ularning o`zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so`zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo`ladi. qiyosiy fonetika qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o`rganadi. Shunga ko`ra u diaxron fonetika deb ham yuritiladi.

Tilshunoslikda nemis tilining tarixiy fonetikasiga oid ma`lumotlar Zinder L.R., Stroeve T.V, Jirmunskiy V.M., Moskal`skaya O.I. kabi tadqiqotchilarning ishlarida berilgan.

XX asr tilshunosligida tipologik tadqiqotlar asosida tillarni taqqoslash bilan bog`liq universalialar lingvistikasi vujudga keldi. Bu yo`nalish til universalialarini aniqlaydi. Til universalialari (lotincha universalis – umumiy, barchaga baravar taalluqli) barcha tillar yoki ularning aksariyatiga xos xususiyatlardir. Universalialar lingvistikasi nazariy soha bo`lib, unda tillarning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat`i nazar til hodisalariga xos umumiyliklarni aniqlash maqsadida izlanishlar olib boriladi. Mazkur lingvistik yo`nalish inson tili tabiati va mexanizmini aniqlashga, ya`ni umumiy tilshunoslik masalalarini yechishga hissa qo`shadi. Tarixiy fonetika tovushlarni quyidagi aspektlarda o`rganadi: fiziologik (nutq tovushlarining nutq organlari yordamida hosil bo`lishi – tovushlar fiziologiyasi); akustik (o`z sifatlari bilan eshitish taassurotlariga ta`sir etish – nutq tovushlarining akustikasi); lingvistik (so`zlarning semantik differentsiatsiyasida tovushlarning o`rni). Aloqa vositasi sifatida uchinchi aspekt asosiy hisoblanib, fonetikani lingvistika tarkibiga qo`shadi.

Tavsifiy fonetika yoki fonologiya ma`lum bir til taraqqiyotining ma`lum bir davri oralig`idagi tovush sistemasini qrganish bilan shug`ullanadi. Ilmiy-tavsifiy

fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug`ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o`tmaydi.

Eksperimental fonetika nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o`rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi.

Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyatsion jihatlarini maxsus asboblari (pnevmoqraf, ostsiqlograf, fonograf, spektrograf va boshqalar) yordamida tadqiq qilinadi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, spektri, cho`ziqlik darajasi), ularning artikulyatsiyasi (hosil bo`lish o`rni, usuli) aniqlanadi. Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik jihatlarini tavsiflashda foydalaniladi.

BIRINCHI BOBO BO`YICHA XULOSA

1. Fonetika til tovushlarini tarkibini, ularni guruhlariga bo`lishini (hosil bo`lish o`rni, usuli, jarangli va jarangsizligi.... Undoshlar), (tilning gorizantal, vertikal harakatiga ko`ra lablangan va lablanmaganligiga unililar) va boshqa barcha tovushlar bilan bog`liq hodisalarni o`rganadi.

2. Talaffuz nutq tovushlarini yuzaga chiqarish, reallashtirish, ya`ni tovushlarni talaffuz qilish, nutq faoliyatlarini yuzaga keltiradi.

3. Fonetika tilshunoslikning ma`lum bir bo`limi bo`lib, u til tovushlarini va prosodik hodisalarni o`rganadi.

4. Tovushni bir inson desak, suprasegment yelemntlar uning kiyimidir. Fonetikaning roli va o`rni tilshunoslikda ham, har qanday holatda, ya`ni, masalan til o`rganishda (nafaqat chet tili, balki ona tilini) xam o`ta muhimdir. Chunki to`g`ri talaffuz qilinmasa (xar qanday so`zni yoki gapni, xatto bir tovushni ham) nutqimmiz to`g`ri, tushunarli bo`lmaydi. Chet tilini esa o`rgana olmaymiz. Xar qanday chet tilini o`rganishda ham eng avvalo fonetika bo`limi yaxshi o`rganilib keyin boshqa bo`limlar o`rganiladi, chunki o`z ona tilimizni ham biz taqlid qilib birinchi uni talaffuzini yeshitib o`rganganmiz. Gapirish to`g`ri talaffuzsiz mumkin emas. Biz faqat to`g`ri eshitgan so`zlarimiznigina to`g`ri talaffuz qilamiz.

II BOB. SO`ZNING FONOLOGIK MODEL: ILMIY AN`ANALAR VA ZAMONAVIY KONTSEPSIYALAR

2.1. Fonologiya tilshunoslikning bir bo`limi

Fonologiya (gr. phone - tovush, logos - ta`limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq, tovushlarining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funktsional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo`ldi.

Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatlarini o`rganuvchi soha bo`lib, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik - artikulyatsion aspektda o`rganadigan fonetikadan farkdanadi.

Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq, tovushlari bo`lganligi kabi, fonologiyaning birligi so`zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq, tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlaridir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy farkdovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obrazi» sifatida yashaydi. Bu farkdovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi. Boshqa lisoniy birliklar kabi fonemalar ham paradigmatik va sintagmatik munosabatlarda yashaydi. Bular fonologik paradigmatika va fonologik sintagmatika deyiladi. O`zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo`lgan, biroq, umumiy, integral belgilari asosida birlashgan bir tipdagi fonemalar sirasi fonologik paradigma, fonemalarning o`zaro munosabatlari fonologik paradigmatik munosabat deyiladi.

Fonologik paradigmaning markazida fonologik ziddiyatlar turadi. Fonologik ziddiyat (oppozitsiya)lar fonemalarning farkdi belgilarini ifodalaydi. Masalan, o`zbek tilidagi unli fonemalar bir umumiy belgi - «o`pkadan kelayotgan havoning tovush paychalariga urilish natijasida hosil bo`lgan ovozning og`iz bo`shlig`ida to`siqqa uchramay chiqishidan vujudga keladigan tovush tiplari» invariant xossasiga ega va u 6 ta unli fonema uchun ham amal qiladi. Biroq bu mohiyat ostida birlashgan fonemalar o`zaro zidlanib, kichik guruhdar hosil qiladi. [i] va [u] «yuqori tor» belgisi bilan «o`rta keng» xossasiga ega [e] va [o] hamda «quyi

keng» xossasiga ega [a] va [o] fonemalar guruxdariga qarama-qarshi turadi. Yoki «lablan-magan» belgisiga ega [i], [e], [a] fonemalari guruhi «lablangan» belgisiga ega [u], [o`], (o) guruhiga qarama-qarshi turadi. O`z navbatida, [i], [e], (e) guruhi a`zolari o`ziga xos belgilari asosida o`zaro ziddanadi. Tilshunoslikda fonologik ziddiyatlarning gurli tip va ko`rinishlari farkdanadi.

N.S.Trubetskoy «Fonologiya asoslari» asarida fonologik ziddiyatlarni uch asosga ko`ra tasniflaydi: 1. Fonologik ziddiyatning ziddiyat tizimiga munosabatiga ko`ra tasnifi. Bunda ziddiyatlar bir o`lchovli va ko`p o`lchovli, muntazam va 50 ajralgan ziddiyatlarga bo`linadi. Bir o`lchovli ziddiyatda fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [i] va [u] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan bo`lib, bunda ular bir belgi -«lablangan »lik xossasiga ko`ra qarama-qarshi turadi. Ko`p o`lchovli ziddiyatda ziddiyat a`zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo`yiladi: e[i]- [o] ziddiyatida [i] yopiq va lablanmagan bo`lsa, (o) yarim yopiq, lablangandir. Muntazam ziddiyatda zidlanuvchi a`zolar o`zaro o`ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi q>tiladi: «[i]-tor [o]-keng» zidlanishi muntazam zidlanishdir. Bunda [i] fonemasi «tor» lik, [o] fonemasi «keng»lik belxisiga ega. «[i] (tor)""[o] (tor emas)» zidlanishi esa muntazam emas. Chunki birinchi a`zoda ziddiyat belgisi anik,, ikkinchi a`zoda aniq emas. Agar ikkinchi a`zoning ziddiyatdagi belgisi «keng» bo`lganda edi, ziddiyatni muntazam ziddiyat deyish mumkin bo`lur edi. Bir belgining bo`linishlari asosida zidlanish ajralgan zidlanish deyiladi. Quyidagi ikki zidlanishga diqqat qiling: **Misol qayerda!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!**

Fonologiya tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi. Bu sohaning o`ziga xos jihati shundaki, u o`z ob`ektini semiotik aspektida (belgilar tizimi sifatida) o`rganadi. Tilshunoslikda fonologiyaning fan sifatidagi maqomi xususida ikki xil fikr mavjud. Birinchi fikrga ko`ra, fonologiya fonetikaning o`zi emas, chunki fonetika nutq tovushlarini, fonologiya esa til tovushlarini o`rganadi: nutq tovushlari haqidagi ta`limot (fonetika) aniq fizik hodisalarni, til tovushlari haqidagi ta`limot (fonologiya) esa shu tovushlarning lisoniy-vazifaviy xususiyatlarini tadqiq qiladi, shunga ko`ra

ularning tadqiqot metodlari ham har xil: fonetika tabiiy fanlarning tadqiqot metodlariga, fonologiya esa lingvistik tadqiqot metodlariga, asoslanadi. Ikkinchi fikrga ko`ra, fonologiyani fonetikadan ajratib bo`lmaydi, chunki muayyan tilning fonemalari tizimini, bu tizimdagi har bir fonemaning "semantizatsiyalashgan" (fonologizatsiyalashgan) belgilarini shu tilning konkret talaffuz xususiyatlarini o`rganmasdan tadqiq qilib bo`lmaydi. Demak, fonologiya aslida fonetikaning o`zi, faqat uning yuqori bosqichi, xolos. Binobarin, fonolog bir vaqtning o`zida fonetist bo`lmay iloji yo`q, ayni paytda fonetist ham doimo (shu jumladan, fonologiya paydo bo`lgan davrgacha ham) ma`lum darajada fonolog bo`lgan, chunki u umuman tovushni emas, balki til tovushlarini o`rgangan.

Ma`lumki, fonetikada tovush va bo`g`in segment birliklar, urg`u va intonatsiya (ohang) esa supersegment birliklar tarzida tavsiflanadi. Fonologiyada bu birliklar lisoniy-vazifaviy xususiyat taqozosi bilan fonema (tovush), sillabema (bo`g`in), aktsentema (urg`u) va intonema (intonatsiya, ohang) deb nomlanadi, fonologiyaning o`zi esa segmental fonologiya va supersegmental fonologiya kabi ikki turga ajratiladi [1].

Segmental fonologiyaning asosiy predmeti fonemadir, shunga ko`ra u fonematika, fonemika nomlari bilan ham ataladi.

Supersegmental fonologiyaning predmeti esa sillabema, aktsentema va intonemadir, shunga ko`ra u prosodika deb ham yuritiladi.

Fonologiyaning xulosalari fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va pertseptiv aspektlarida to`plangan tajriba va ma`lumotlarga asoslanadi. Bu hol ham fonologiya bilan akustik fonetika, artikulyatsion fonetika va pertseptiv fonetika o`rtasida uzviy aloqa borligidan dalolat beradi.

Fonetik birliklarning lingvistik-funksional jihat-larini o`rganish, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bungacha «fonema» va «fonologiya» tushunchalari bo`lmagan, hatto «tovush» va «harf» tushunchalari bir hodisadek tasavvur etilgan. Buni taniqli tilshunos Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida ham kuzatish mumkin.

Harf bilan tovushning qorishtirilishi Yevropada Yunon-Rim tilshunoslari asarlarida ham kuzatiladi. Masalan, IV asrda yashagan Pristsiananing grammatikasida harfga oid terminlar tovushga nisbatan qo`llanadi. Bunday qorishtirilish XIX asrgacha davom etadi. Taniqli olim, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschilaridan biri bo`lgan Yakob Grimmning 1819 yilda yozilgan «Nemis grammatikasi» («Deutsche Grammatik, I». Göttingen,1819) kitobining birinchi qismi «Harflar xususida» («Von den Buchstaben») deb nomlanganligi ham shundan guvohlik beradi. Yosh grammatikachilar (mladogrammatikachilar) tillarning qadimgi tovush tizimlarini qayta tiklash va bu tizimlarning keyingi taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash ishlarida qadimgi yozma yodgorliklarning harflariga tayanib ish ko`rganlar. Bu ham yuqoridagi fikrimizning bir isboti.

Akademik L.V.Shcherba bunday holatning maktab darsliklarida ham kuzatilishini tanqid qilib, 1904 yilda shunday degan edi: «Tovush va harflarning qorishtirilishi mualliflarni morfologiyada ham noto`g`ri xulosalarga olib keladi». Prof. L.R.Zinder L.V.Shcherbaning bu tanqidiy fikrini maktab darsliklarigagina emas, ayrim ilmiy grammatikalarga ham xos deb hisoblaydi: uningcha «-a» va «-ya»ning ikkita har xil qo`shimcha ekanligi faqat yozuvdagi holatdir, tilda esa ular, aslida, bita qo`shimchaning o`zi.

Ko`rinib turibdiki, o`tmishda harf va tovush sistemalari ko`pincha farqlanmagan. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, tilshunoslikda og`zaki va yozma nutqlar tilning alohida-alohida yashash formalari ekanligi ta`kidlana boshlanadi. Xususan, taniqli rus va polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene o`zining «rus yozuvining rus tiliga munosabati» («Ob otnoshenii russkogo pis'ma i russkomu yazыku») kitobida nutqiy faoliyatning ikki turi – talaffuz va eshituvchi hamda yozish va ko`rishga asoslangan turlari borligini aytadi, ammo bu ikki formani u bir-biriga teng deb hisoblamaydi. Uningcha, nutqning talaffuzga va eshitishga asoslangan shakli yozma shaklga bog`liq bo`lmagan mustaqil ravishda yuzaga kelishi mumkin, yozishga va ko`rishga asoslangan nutq shakli esa faqat talaffuzga va eshitishga asoslangan nutqqa bog`liq ravishda anglashiladi.

Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, faqat tovush bilan harf emas, balki tovushning fizik tabiati bilan uning til mexanizmidagi roli ham doimo bir-biriga mos bo'lavermas ekan. Bu masala I.A.Boduen de Kurtening 1870 yilda yozilgan «XIV asrgacha bo'lgan qadimgi polyak tili haqida» («O drevnepol'skom yazыke do XIV stoletiya») nomli magistrlik dissertatsiyasida o'z ifodasini topadi: unda fonetikaning ikkita vazifasi borligi alohida ta'kidlanadi: 1-vazifa--tovushning fizik tabiatini o'rganish. Bu vazifa fonetikaning akustik va fiziologik aspektlarini tashkil qiladi; 2-vazifa--tovushlarning til mexanizmidagi rolini, xalqning sezishi, his etishida tovushlarning ahamiyatini o'rganish. Bunda tilning eng kichik (minimal) birligi haqidagi tushunchaga asos solinadi. Keyinroq bu birlik I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdi N.Krushevskiy tomonidan fonema deb nomlanadi. Shundan boshlab, fanda harf bilan tovushnigina emas, balki tovush (fon) bilan fonemani ham qat'iy farqlash zarurati paydo bo'ladi.

I.A.Boduen de Kurtene 1881 yilda nashr etilgan «Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo'limlari» («Nekotorye otdely sravnitel'noy grammatiki slavyanskix yazыkov») nomli asarida «Fonema so'zning o'zaro qiyoslanayotgan qismlari orasida o'zining bo'linmasligi bilan xarakterlanadi», deydi. Tovushlarning morfema tarkibidagi almashinuvi qonuniyatiga asoslanib, u fonemaning bo'linmas bir butun tovush shaklidagina emas (masalan, vorot, rov so'zlarida bo'lganidek), balki tovushning bir qismi (masalan, syadu so'zidagi yumshoq «s» sad so'zidagi qattiq «s»ning bir qismi) bo'lishi yoki hatto morfema va so'zning tarkibida bo'laklarga ajralmaydigan holga kelib qolgan ikki va undan ortiq tovush qo'shilmasidan (masalan, vrащатъ, vorotitъ so'zlaridagi «ra» va «oro»dan) tarkib topishi ham mumkinligini aytadi. Bundan shu narsa anglashiladiki, I.A.Boduen de Kurtene fonemani fonetik birlik sifatida emas, etimologik-morfologik birlik sifatida qaragan, biroq shu joyning o'zida u «fonema» tushunchasining ikki xil: (1) antropofonik (akustik-artikulyatsion) xususiyatlar umumlashmasi va (2) morfologik kategoriya belgisi bo'lishini ham

aytib o`radi. Shunday qilib, u fonemaning antropofonik aspekti borligini tan oladi, uni morfologik aspektdan farqlash lozimligini uqtiradi.

Keyinroq I.A.Boduen de Kurtene fonema haqidagi fikrini o`zgartirib, unga sof psixologik ta`rif beradi: 1984 yilda (polyak tilida) yozilgan «fonetik alʼternatsiyalar nazariyasi yuzasidan tajriba» («Опыт теории фонетических алʼternатив») nomli ishida u fonemani til tovushlarining psixik ekvivalenti deb baholaydi, 1917 yilda yozilgan «Tilshunoslikka kirish» kitobida ham olim shu fikrni takrorlaydi: «... bizning psixikamizja tovush xususida, aniqrog`i, tovushni talaffuz qilish paytidagi murakkab ish kompleksi haqida doimiy tasavvur shakllangandir. Biz uni fonema deb ataymiz», -deydi u.

I.A.Boduen de Kurtenening yuqoridagi fikrlari va ta`riflarini tahlil qilar ekanmiz, ularda quyidagi muhim holatlar ko`zga tashlanadi: (1) olim tilda nutq tovushlaridan boshqa elementlar borligini sezgan, tilshunoslarning e`tiborini shu elementlarga tortishga harakat qilgan. Bu elementlarni u keyinchalik «fonema» deb nomlagan; (2) u fonemani goh «morfemaning harakatchan komponenti», goh «nutq tovushlarining psixik ekvivalenti», goh «morfema tarkibida lisoniy qiymatga ega bo`lgan til birligi» deb ta`riflagan. Bularning barchasida fonemaga oid tovush almashinuvi (cheredovanie zvukov, alʼternatsiya) muammolari va nutqning morfologik bo`linishi nazariyasi bilan bog`langanligini ko`ramiz.

I.A.Boduen de Kurtenening fonema haqidagi g`oyalari tilshunoslikda fonetika fanining yanada ko`proq rivoj topishiga, uning yuqori bosqichi (oliy formasi) bo`lgan fonologiyaning tarkib topishiga olib keladi. Bu g`oyalar keyinchalik chet ellarda, masalan, Praga tilshunoslik to`garagi faoliyatida fonologik tadqiqotlar olib borilishiga jiddiy ta`sir ko`rsatdi.

Fonologik sath invariant-variantlilik munosabati ko`pchilik tomonidan tilga olingan bo`lsa-da, invariantni qanday belgilash muam-mosi turlicha talqin qilinadi. Xuddi ana shu masalada tilshunoslar turli oqimga bo`linadilar.

Fonologik oppozitsiyalar fonemalarning farqli belgilarini o`zida ifodalaydi. Masalan, [p]-[t] “lab* til oldi” belgisi bilan, [a]-[o] “lablanmagan-lablangan”lik xossalari bilan farqlanadi.

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining akustik-artikulyatsion tomonidan funktsional tomonini farqlash ehtiyoji natijasida paydo bo`ldi. Fonologiya termini tilshunoslikda qat`iy o`rin olgan bo`lsa ham, lekin ko`p hollarda fonetikadan aniq farqlanmaydi, ba`zan ular bir-biri bilan aralashtiriladi. Ayrim hollarda esa ikkisining qrganish ob`ekti aralashtiriladi. Masalan, tilshunoslarning ko`pchiligi fonologiya deganda, nutq tovushlarining funktsional tomonini tushunsalar, ayrimlari artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Xususan, F.de Sossyur shunday deydi: “Tovushlar fiziologiyasi ko`p hollarda fonetika deyiladi. Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko`rinadi. Biz buni fonologiya termini bilan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar taraqqiyoti haqidagi ta`limot bo`lib kelgan va shunday bo`lib qolaverishi kerak. Fonetika tarixiy fandır. U voqealarni, o`zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi. Fonologiya zamondan tashqaridir. Chunki artikulyatsiya mexanizmi doimo o`ziga o`zi o`xshashligicha qolaveradi”. Keyinchalik fonologiya tilshunoslikning alohida bo`limi sifatida fonemalarning farqlovchi belgilarini o`rganuvchi fan sifatida e`tirof etildi.

Fonemalarning bevosita nutq jarayonida reallashuvi esa fonetikaning qrganish ob`ektiga aylandi. N.S.Trubetskoyning fikricha, nutqiy faoliyat ifodalovchi va ifodalanmishning o`zaro munosabatidan iborat. Ifodalanmish til va nutq zidlanishiga ega bo`lganidek, ifodalovchi ham xuddi shunday zidlanishga ega. Nutqda ifodalovchi konkret nutq oqimidan iborat bo`lgan fizik hodisa sanaladi. Tilda esa ifodalovchi nutqiy aktning tovush tomonini tartibga soluvchi qoidalar hisoblanadi. Konkret nutqiy birliklarning miqdori artikulyatsion harakat va unga muvofiq keluvchi tovushlarning chegarasiz, sanab bo`lmas darajada xilma-xil bo`lsa, til birliklarining miqdori chegaralangandir. Uning ta`kidlashicha, fonetikaning qrganish ob`ekti bo`lgan tovush ko`p miqdordagi akustik va artikulyatsion belgilarga ega bo`ladi va ularning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi.

Chunki ularning hammasi e`tiborga olingan holdagina, u yoki bu tovushning talaffuzi haqida tqg`ri javob berishga imkon beradi. Fonolog uchun tovushlarning

bir qator belgilari ahamiyatsiz sanaladi. Chunki ular ma`noli birliklarni shakliy jihatdan farqlovchi belgi sifatida funktsiya bajarmaydi. Shuning uchun fonolog konkret tovushlar tarkibidagi farqlamay-digan, ikkinchi darajali akustik-artikulyatsion belgilarni soqit qilish yqli bilan bir necha konkret tovushlarda takrorlanadigan, ular uchun umumiy bo`lgan belgilarni aniqlash bilan shug`ullanadi. Bunday yql esa tovush birliklarini bir-biriga qiyoslashni, ularni munosabatda qrganishni talab etadi.

Shunday qilib, umumiylikni, mohiyatni qrganish fonologiyaning, xususiylikni, hodisalarni qrganish esa fonetikaning vazifasiga aylandi. Biroq keyinroq fonologiyani fonetikaga qarama-qarshi qo`yish shu darajada bo`ldiki, ayrim strukturalistlar bevosita kuzatishda berilgan hodisalarni qrganishni ahamiyatsiz, keraksiz bir narsa deb hisoblab, fonetikadan fonologiyani tamoman uzib olishga, faqat fonologiyani qrganishga harakat qildilar. Akad. L.V.Shcherba fonologiyani fonetikadan uzib qyuvchilarga tamoman qarshilik ko`rsatish lozimligini, ma`lum tilning fonologik sistemasini, har bir fonemani farqlovchi faqat uning shu tildagi konkret talaffuzi asosida tadqiq qilish kerakligini uqtiradi.

Darhaqiqat, falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, xususiylikdan ajralgan umumiylik yo`q. Har qanday umumiylik xususiyliklar orqali o`z tajallisini topadi. Shuning uchun ham fonetikasiz fonologiyaning mavjud bo`lishi mumkin emas.

Fonologiya fonetika bergan materiallar asosida ish ko`radi. Har qanday fonolog bir vaqtning o`zida fonetist sanaladi. Chunki fonologik oppozitsiyalar konkret tovushlarga tayanadi. Shu bilan birga, har qanday fonetika mutaxassisi ma`lum ma`noda fonolog hamdir.

Chunki fonetika tadqiqotchisi har qanday tovushlarni emas, balki nutq tovushlarini, ularning ma`lum bir tildagi farqli belgilarini qrganadi. **(Bilib oling) !!!!!** Shunday qilib, fonetika va fonologiya o`zaro uzviy bog`liq bo`lib, umumiylik-xususiylik dialektikasini o`zida namoyon qiladi. Xususiyliklarsiz umumiylikning bo`lishi mumkin bo`lmagani kabi, fonetikasiz fonologiyaning ham bo`lishi mumkin emas.

Ularning o`rganish ob`ekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqlovchi belgilarini qrganadi. Demak, ular o`zlarining ob`ekti jihatidan emas, balki bir ob`ektning turli qrganish aspekti ekanligi bilan farq qiladi. Fonologiyaning o`rganish birligi ijtimoiy-ruhiy, umumiy xususiyatga ega bo`lgan fonemalardir.

2.2. Fonema umumiylikdir

U bevosita kuzatishda turli variantlarda namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham fonema hozirgi kunda til va nutqni farqlovchi tilshunoslar tomonidan so`z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma`nosini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa moddiy mayda bo`laklarga bo`linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi sifatida e`tirof etiladi. Fonema atamasi va uning tilning eng kichik tovush birligi ekanligi birinchi marotaba tilshunoslikda I.A.Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilinadi.

Hozirgi kunda fonema tushunchasi barcha tilshunoslar tomonidan e`tirof etilsada, lekin uning maqomi masalasida bir xillik yo`q. Tilshunoslikda fonema haqidagi ta`limotning asoschisi sanalgan Boduen de Kurtenening o`zi ham fonema maqomi masalasida turli xil yqnalishlarning kelib chiqishiga zamin yaratib qo`ygan. U fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligini ko`rsatadi:

(1) antropofonik (ya`ni akustik-artikulyatsion) xususiyatlarining oddiy umumlashmasi;

(2) morfemaning harakatlantiruvchi komponenti va ma`lum morfologik kategoriya belgisi.

Boduen de Kurtenening fonemaning bu ikki xil tomonini ko`rsatuvi keyinchalik fonema maqomini belgilashda ikki xil yqnalishning vujudga kelishiga sabab bo`ldi. N.S.Trubetskoy asos solgan fonologik yqnalish, L.V.Shcherba asos solgan Leningrad fonologik maktabi, A.A.Reformatskiy, Avanesov, Sidorov, Dmitrievlar tomonidan asos solingan Moskva fonologik maktablari ko`pchilik tomonidan e`tirof etiladi. Fonologiya sohasida yaratilgan keyingi barcha asarlar yuqorida sanab ko`rsatilgan u yoki bu fonologik maktabning g`oyalari bilan

bog`lanadi. (Bilib qo`ygan yaxshi) Har uch maktab kelib chiqish ildiziga ko`ra bir manbaga - Boduen de Kurtenega borib taqaladi. Bu kontseptsiyalar Boduenning fonema haqidagi ikki xil qarashidan qaysi biriga asoslanish orqali vujudga kelgan. Bu nuqtai nazardan N.S.Trubetskoyning fonologik kontseptsiyasi bilan Leningrad fonologik maktabining qarashlari bir-biriga ancha yaqin keladi. Har ikkisi fonemani qurshovdan ajralgan va unga bog`liq bo`lmagan potentsial umumiy birlik, farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham har ikki yqnalish ijtimoiy-ruhiy, imkoniyat tarzidagi fonemani nutq zanjirida sezgi a`zolarimizga ta`sir etadigan real akustik elementlarga, boshqacha aytganda, umumiyliklarni xususiyliklarga qarama-qarshi qyadi. Garchi xususiyliklar bu ikki yqnalishda ikki xil atamaları bilan – Praga lingvistik maktabida variant, Leningrad fonologik maktabida ottenka atamaları bilan nomlansa ham, lekin ular aslida bir narsa haqida fikr yuritadilar. Shuning uchun Praga lingvistik maktabi qarashlarini hamda Leningrad fonologik maktabi qarashlarini bir guruhga birlashtirgan holda, ularni Moskva fonologik maktabiga qiyoslagan holda fonema maqomini belgilash mezonlari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq deb qilyamiz.

L.V.Shcherba fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki ma`no farqlash xususiyati muhim ekanligini ta`kidlaydi. Akustik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. Ana shunday umumiy belgi ma`no farqlash xususiyati sanaladi.

L.V.Shcherba fonologik sath umumiylik va xususiylik dialektikasining fonema va uning ottenkalarida namoyon bo`lishini ta`kidlaydi. Uning fikricha, umumiyning (fonemaning) talaffuz qilingan real ko`rinishlari ottenkalardir. Bevosita kuzatishda berilgan, muayyan makon va zamonga bog`liq real talaffuz qilinuvchi barcha akustik - artikulyatsion birliklar ottenkalar sanaladi. Anglashiladiki, fonema va uning ottenkalari o`rtasidagi munosabat ikki bosqich munosabatidir: abstrakt bosqich (fonema), konkret bosqich (ottenka).

L.V.Shcherbaning fikricha, fonemaning ottenkalari ichida bittasi turli sabablarga ko`ra tipik bo`ladi. Alohida talaffuz qilingan ottenka ana shunday tipik

ottenka hisoblanadi, faqat shu ottenka real nutqiy element sifatida tilga olinadi. Boshqa ottenkalar esa tipik ottenkalarga nisbatan turli o`zgarishlar bilan talaffuz qilinadi. Bu vaqtda ularni birlashtirib turuvchi belgi nima? Bu belgini L.V.Shcherba bir fonetik sharoitda biri qrnida ikkinchisi kela olmaslik belgisi sanaydi.

Ma`lum bir sharoitda biri qrnida ikkinchisini qo`llash mumkin bo`lgan ottenkalar bir fonemaning emas, turli fonemaning ottenkalari sanaladi. Bir fonemaning ottenkalari esa hech qachon bir sharoitda biri qrnida ikkinchisi kela olmaydi. Shunday qilib, fonema - bu, bir tomondan, barcha ottenkalarining umumlashmasi, ikkinchi tomondan, har qaysi ottenka konkret hollarda shu fonemaning vakili hisoblanadi. Fonema ottenkalari bir fonema doirasida bir-biriga qarama-qarshi qo`yiladi. Ottenkalar umumlashmasi (fonema) boshqa ottenkalar umum-lashmasiga (fonemaga) qarama-qarshi qo`yiladi. Shuning uchun ham L.V.Shcherba fonemani qisqa qilib “konkret vaziyatda ottenkalar sifatida namoyon bo`ladigan umumlashmadir” deb izohlaydi. Anglashiladiki, Leningrad fonologik maktabida fonemalar bir-biriga qaramaqarshi qo`yish asosida belgilanadi. O`zaro qarama-qarshi munosabatda bo`luvchi ikki minimal birlik qarama-qarshi a`zolar sanaladi. qarama-qarshi munosabatdagi a`zolar bir qator belgilarga ega bo`lib, shulardan bittasi farqlovchi, qolganlari farqlanmaydigan (nodifferentsial, irrelevant) belgilar hisoblanadi. Shuning uchun ham fonema farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida tavsiflanadi. Praga lingvistik maktabida ham zidlanishlar asosiy mezon sanaladi. Zidlanishlar oppozitsiyalar atamasi bilan nomlanadi. Xususan, N.S.Trubetskoy fonologik sistemani leksik va grammatik ma`nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar majmuasi sifatida talqin qiladi. U fonologiyada asosiy rolni farqlovchi belgilar qynashini ta`kidlaydi. Fonema xuddi Leningrad fonologik maktabidagi kabi abstrakt birlik sanaladi. Fonema nutq jarayonida turlicha o`zgarishlar bilan moddiylashishi mumkinligi ko`rsatiladi. Nutq jarayonida turlicha akustik-artikulyatsion xususiyatga ega bo`lgan real tovushlar muayyan fonemaning variantlari hisoblanadi.

Ko`rinadiki, Leningrad fonologik maktabidagi ottenka Praga fonologik maktabidagi variant atamasi bilan nomlanadi. L.V.Shcherba ottenkalarni turli belgilariga ko`ra tasnif etgani kabi, N.S.Trubetskoy ham variantlarni guruhlab, uch sinfga ajratadi: 1) majburiy variantlar; 2) fakultativ variantlar (dialektal variantlar); 3) individual variantlar. Majburiy variantlarning o`zi yana uch guruhga bo`linadi: a) pozitsion variantlar; b) kombinator variantlar; v) uslubiy variantlar.

Ko`rinib turibdiki, Leningrad fonologik maktabi bilan Praga lingvistik tadqiqotining fonologik kontseptsiyasi bir-biriga juda yaqin. Har ikkalasi ham fonemani abstrakt birlik sifatida, farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida talqin etadi. Har ikkalasi ham abstrakt xususiyatga ega bo`lgan fonemani nutq jarayonida real qo`llanuvchi variantlar yoki ottenkalarga qarama-qarshi qo`yadi. Fonemaning bunday talqini umumiylik-xususiylik, imkoniyat-voqelik, mohiyat-hodisa dialektikasini fonologik sath namoyon qiladi.

Moskva fonologik maktabida esa fonemaga boshqacharoq yondashiladi. Ularning fikricha, fonema ma`lum avtonomlikka ega bo`lgan, so`z va morfemaning tovush qobig`iga bog`liq bo`lmagan mustaqil birlik emas, balki so`z va morfemalarning tarkibiy elementi hisoblanadi. Fonemaga bunday ikki xil qarash bir fonetik qurshovdagi ayrim tovush birliklarini ikki xil talqin qilishga olib keldi. Masalan, o`zbek tilidagi aqcha so`zining birinchi tovushi yuqoridagi ikki fonologik yo`nalish bo`yicha ikki xil fonemaning vakili sanaladi.

Praga va Leningrad fonologik kontseptsiyasiga ko`ra bu tovush – keng, lablanmagan unli fonemaning varianti. Chunki o`zak tarkibidagi bu fonetik birlik kuchli pozitsiyada keng, lablanmagan unli fonemaning vakili ekanligini bildirib turibdi. Moskva fonologik maktabida fonemalarni ajratishda fonetik birlikning morfema va so`z tarkibida qanday fonetik qurshovda va qanday vaziyatda kelishi belgisi tayanch nuqta bo`lganligidan, fonemalar pozitsiyasiga kuchli e`tibor beriladi. Shuning uchun pozitsiyalar muayyan guruhlarga bo`linadi. So`z shaklining tovush tomonini farqlash pozitsiyasi – kuchli pozitsiya va minimal farqlash pozitsiyasi – kuchsiz pozitsiya sifatida ikki pozitsiya darajasiga ko`ra ajratiladi. Qurshovdagi tovushlarning ta`siriga kam berilgan pertseptiv tomondan

kuchli farqlanishga ega bo`lgan pozitsiya kuchli pozitsiya hisoblanadi. Rus tili unilari uchun bunday pozitsiya urg`u osti pozitsiyasi, undoshlar uchun esa unli oldi pozitsiyasi sanaladi. O`zbek tili unilari uchun so`zning faqat bir unidan tashkil topgan birinchi bo`g`in pozitsiyasi kuchli pozitsiya, undoshlar uchun esa kuchli pozitsiya ularning unli oldida kelishi, kuchsiz pozitsiya undosh oldidagi vaziyati sanaladi.

R.A.Avanesov fonemalar pozitsiyasini tasnif qilar ekan, ma`lum bir fonemaning bir belgisi uchun kuchli pozitsiya shu fonemaning boshqa belgisi uchun kuchsiz pozitsiya bo`lishi mumkinligini aytadi. Shuning uchun u pozitsiyalarni quyidagi to`rt guruhga bo`ladi:

1. Jarangli-jarangsizlik belgisi uchun ham, qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun ham kuchli pozitsiya.

2. Jarangli-jarangsizlik belgisi uchun kuchli, qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun kuchsiz pozitsiya.

3. Qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun kuchli, jarangli-jarangsizlik belgisi uchun kuchsiz pozitsiya.

4. Har ikki belgi uchun absolyut kuchsiz pozitsiya. A. A. Reformatskiy kuchsiz pozitsiyalarni ikkiga – pertseptiv (bilish tomonidan) kuchsiz va signifikativ (farqlash) kuchsiz pozitsiyalarga ajratadi.

Pozitsiya tushunchasi ostida fonema variantlari va variatsiyalari ham ajratiladi. Pertseptiv kuchsiz pozitsiyada fonema variatsiyalari, signifikativ kuchsiz pozitsiyada esa fonema variantlari hosil bo`lishi ta`kidlanadi. Shunday qilib, Moskva fonologik maktabida fonemalar so`z va morfemalardan ajratilmagan holda, ularning tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ularni ajratishda pozitsiya tushunchasi eng muhim belgi sanaladi. Anglashiladiki, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasi Praga lingvistik to`garagi bilan Leningrad fonologik maktabida fonema va uning variantlari (ottenkalari) zidlanishida yaqqol namoyon bo`ladi.

Shuning uchun ham biz fonologik sath invariant va variantlarni belgilashda ko`proq Praga va Leningrad fonologik maktabi mezonlariga asoslanamiz.

Fonologik sath umumiylik-xususiylik dialektikasi fonologik birliklarning tasnif va tahlilida ham aks etadi.

Fonologik tasnif va tahlilda fonemalar paradigmatic va sintagmatic jihatdan qaraladi. Fonemalar paradigmatic jihatdan o`rganilganda, har bir fonemaning muayyan tilning fonologik sistemasidagi boshqa fonema bilan assosiativ munosabati, ularning bir-biri bilan ongdagi qiyosi tushuniladi.

Fonemalarni paradigmatic planda qrganish orqali qiyoslana-yotgan fonemalarning farqlovchi (differentsial) va farqlanmaydigan (nodifferentsial) belgilari aniqlanadi. Shunday qilib, paradigmatic munosabat orqali fonemalarning qanday belgilardan tashkil topgan umumlashma ekanligi belgilanadi.

Sintagmatic jihatdan esa ularning nutq jarayonidagi turli xil artikulyatsion-akustik o`zgarishlari qrganiladi. (Yodda tuting) O`zbek tili fonologiyasining shakllanishida Ye.D.Polivanov, G`.Yunusov, A.G`ulom, V.V.Reshetov, A.M.Shcherbak, F.Abdullaev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Mahmudov, S.Otamirzaeva, E.Umarov, A.Nurmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta bo`ldi. A.A.Abduazizov esa o`zbek tili fonemalarini paradigmatic va sintagmatic aspektda maxsus o`rganib, o`zbek tili fonologiyasini yuqori cho`qqiga ko`tardi. U o`zbek tilshunosligida birinchi marta nutqning har bir fonetik bo`linishida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo`lishini ochib berdi, ularni farqlovchi maxsus atamalar tizimini o`zbek tilshunosligiga Yevropa tilshunosligidan olib kirdi. A.Abduazizov nutqni fonetik jihatdan o`zigacha mavjud bo`lgan barcha mualliflar kabi ibora (fraza), takt, bo`g`in va tovushlarga bo`ladi. Uning boshqalardan farqi shundaki, bu birliklarni u paradigmatic qatorda bir-biriga qarama-qarshi qo`yish mumkin bo`lgan emik birliklarga zidlaydi: tovush – fonema, takt – taktema, bo`g`in – sillabema va boshqalar.

Shuningdek, u segment birliklar bilan ustsegment birliklarni an`anaga ko`ra ajratgan holda, urg`u, intonatsiyalarni ustsegment birliklarga kiritadi. Ustsegment birliklarda umumiylik-xususiylikni farqlamoq uchun urg`u-aktsentema, ohang-intonema atamalaridan foydalanadi. Emik birliklarni ajratishda bosh mezon qilib ma`no farqlash funktsiyasi olinadi. Muayyan ma`no farqlash xususiyatiga ega

bo`lgan bo`g`inga sillabema (xitoy, yapon, koreys tillariga xos), tovushga fonema, urg`uga aktsentema, ohangga intonema atamaları qo`llaniladi. Shunday qilib, fonetik birliklar (tovush, bo`g`in, urg`u, ohang) bilan fonologik birliklar orasida ma`lum munosabat quratiladi.

A. Abduazizovning ta`kidlashicha, nutqning hosil bo`lishi, uzatilishi, xotirada ongli saqlanishi kabi murakkab hodisalarning markazi miya neyronlari orqali amalga oshiriladi. Tildagi turli birliklarning shakl va mazmunini farqlab, turlicha tushuncha, kontseptlar, freymlar yordamida milliy-madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni har bir xalq yoki etnos uchun o`ziga xosligini aniqlashda fonologik vositalar katta xizmat qiladi. Inson tili "tovushli, ovoqli" bo`lib, u mazmunni hosil qilishda buyuk ahamiyatga egaligini kognitiv fonetika va fonologiyada o`rganilishi sababli uni kognitiv tilshunoslikning asosiy tarkibiy qismi ekanligini e`tirof etish lozim

Professor D. Ashurova o`z maqolasida kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o`z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko`rsatib o`tadi. Jumladan, hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi yangi yo`nalishlari vujudga kelganligi ta`kidlanadi. Kognitiv yondashuv asosida so`z turkumlari, til birliklarining kategoriyalarga bo`linishi va kontseptualizatsiyalashuvi, til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yangicha talqinlarga ega bo`ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimidan freym, stsenariy, skript, kategoriyalashtirish, kontsept, kontseptualizatsiya, kognitiv struktura, kognitiv metafora kabilar o`rin olmoqda. Mazkur yo`nalishning asosiy tadqiq metodlariga freymlar asosida tahlil qilish, modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish), kontseptual tahlil singarilar kiradi.

Fonologiya shu artikulyatsion-akustik xususiyatlar ichidan bir tovushni ikkinchisidan farqlovchilarini hisobga oladi. Shu jihatdan fonetika va fonologiya bir xil terminlar (til oldi, til orqa, ochiq, yopiq, lablangan, lablanmagan, portlovchi, sirg`aluvchi va boshqalar) bilan ish tutadi. Agar bu terminlar fonetik jihatdan tovushlarning umumiy xususiyatlariga tegishli bo`lsa, fonologiya uchun bu

terminlar fonemalarni bir-birlariga qarama-qarshi qo`yganda, farq qiluvchi farqlanish elementlari sifatida qaraladi.

Fonema tildagi o`zidan yuqori bo`lgan birliklarni, ya`ni so`z, so`z formalari va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlashga xizmat qiluvchi tilning eng kichik birligidir. Masalan, o`zbek tilidagi «bir-bar-ber-bur-bo`r-bor» so`zlarini farqlashda ular tarkibidagi unli fonemalar xizmat qiladi. Bunday ma`lum o`rinda bir fonemaning ikkinchisiga qarama-qarshi qo`yilishini namoyon etuvchi so`zlar («bur-bor» kabi) kvaziomonimlar (L.V.Shcherba termini) yoki minimal juftlikdagi so`zlar deyiladi. Odatda tildagi fonemalar soni kvaziomonimlar yordamida aniqlanadi va bunda bir yo`la bir fonemani ikkinchisiga qarama-qarshi qo`yish orqali ularning farqlanish elementlari tasnif etiladi. Masalan: tol-sol so`zlaridagi ikki fonema-(t) va (s) portlovchi-sirg`aluvchi farqlanish elementlariga ega. Ularning har ikkisi ham til oldi, jarangsiz, shovqinli undoshlardir va bu alomatlari farqlanmovchi elementlar deyiladi.[3]

Fonema tilda o`z funksiyasini fonologik jihatdan farqlanish va farqlanmovchi elementlari orqali bajaradi. Biroq, ba`zan bir fonemani ikkinchisiga qarama-qarshi qo`yishni namoyon etuvchi kvaziomonimlar topilmasligi mumkin. Masalan, rus tilidan kirgan (j) (jyuri, jurnal so`zlaridagi) va (ts) fonemalarini qarama-qarshi qo`yuvchi kvaziomonimlar o`zbek tilida topilmaydi. Shu sababli bu fonemalarni fonemalar ro`yhatidan o`chirib bo`lmaydi. Bu o`rinda L.R.Zinder fonemaning funksiyasi faqat so`z va so`z formalari farqlashda emas, balki tildagi birliklarni tanib olishda («...чтобы опазнать»)[4] deb juda to`g`ri ko`rsatadi. Rus tilidan kirgan so`zlarni ular tarkibidagi (f), (j), (ts) fonemalarining funksiyasi orqali tanib olish mumkin. Demak, kvaziomonimlardan doim foydalanish mumkin emas, chunki bu orqali barcha fonemalar sonini aniqlab bo`lmaydi. Tildagi barcha fonemalar (unli va undosh fonemalar) dialektik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi qo`yiladi va bu fonologik oppozitsiyalar deb qaraladi. Barcha fonemalar o`rtasidagi o`zaro bog`lanish va aloqalar fonologik sistemani tashkil etadi.

Bu bog`lanish va aloqalarning qanday xarakterda ekanligi, undagi ichki alomatlar fonologik strukturani izohlaydi. Har bir fonema esa, fonologik birlik (yoki element) sifatida qaralib, u fonologik oppozitsiyaning bir a`zovidir. Har bir fonemaning fonologik sistemada o`z o`rni va funktsiyasi bor. Masalan, (ng) fonemasi o`zbek va ingliz tillarida faqat so`z oxirida keladi va boshqa fonemalardan shu funktsiyasi orqali farqlanadi (tom-tong kabi).

Fonologik tasnifda fonemalar paradigmatic va sintagmatic jihatdan qaraladi. Fonemalarni (va boshqa til birliklarini) bir xil o`rinlarda bir-biri bilan qiyoslash paradigmatic aloqalar deb ataladi. Fonemalarni paradigmatic planda qarash orqali ularning farqlanish elementlari aniqlanadi. Sintagmatic planda fonemalarning qaysi o`rinlarda uchrashi, so`z, morfema va bo`g`inlarda taqsimoti, umuman nutq jarayonidagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarining o`zgarishi o`rganiladi. Tilning fonologik sistemasi fonemalar o`rtasidagi paradigmatic va sintagmatic aloqalarning bog`lanishi asosiga qurilgandir. (p), (t), (k) fonemalari unlilardan oldin, ular o`rtasida va so`z oxirida kelganda, aspiratsiyali va boshqa o`rinlarda esa aspiratsiyasiz variantlariga ega. Lekin bu ikki xususiyat so`zlarni farqlashga xizmat qilmaydi. Boshqacha aytganda, fonemalarning nutq jarayonida bir qancha variantlari (ular hozirgi davr fonologiyasida «allofonlar» deb ham ataladi) ularning sintagmatic xususiyatlariga tegishlidir. Paradigmatika va sintagmatikaning munosabati fonologiya va fonetikaning bog`lanishida yetakchidir. Chunki paradigmaticada tildagi fonemalar farqlansa, sintagmaticada o`sha fonemalarni nutqda namoyon etuvchi tovushlar, ya`ni fonemalarning allofonlari farqlanadi. Bunday munosabat yana boshqa dixotomik (ikkitalik) farqlanishlarni ham vujudga keltiradi. Ular struktura-sistema, diaxroniya-sinxroniya, dinamika-statika o`rtasidagi farqlanish va bog`lanishlarda ko`rinadi. Tilning taraqqiyotida odatda fonetik o`zgarishlar asta-sekin fonologik evolyutsiyaga olib keladi.

2.3. Fonetika va fonologiyaning bir-biri bilan bog`liqligi

Fonetika va fonologiyaning bir-biri bilan bog`liqligi barcha farqlanishlarda ham ko`rinadi. Chunki sintagmatikasiz paradigmatika, strukturasis sistema, diaxroniyasiz sinxroniya, dinamikasiz statika bo`lmaydi. Bu bog`lanishda til va nutqdagi barcha elementlarning dialektik aloqalari mujassamlashgan. Nutqning fonetik jihatdan mayda bo`laklarga bo`linishi segmentatsiya deyiladi.

Har bir bo`lingan bo`lak segment deyiladi. Nutqning fonetik bo`linishida yirik segment (masalan, fraza), o`z navbatida, mayda segmentlarga-takt, bo`g`in va tovushlarga bo`linishi mumkin. Nutq va tilning bo`linishi ham bir xil emas. Tilning eng yirik birligi gap deb qaralsa, u o`z navbatida so`z birikmalariga, so`z birikmalari so`zlarga, so`zlar morfemalarga (yoxud bir so`z bir morfemaga to`g`ri keladi), morfemalar esa fonemalarga bo`linadi. Nutqning fonetik bo`linishi va kishi eshitib his qila oluvchi aniq psixolingvistik birliklar hamda tilni tadqiq qilishdagi birliklar o`rtasida katta farq mavjudligini quyidagi tablitsada ko`rish mumkin. **TABLITSA QANI??**

Fonetik jihatdan nutqdagi yirik segmentlarni ulash uchun urg`u va intonatsiya zarur ekan, tildagi birliklarni ham bir-biridan farqlash va ularning ma`no (semantik) jihatini tekshirish uchun urg`u va intonatsiyaning vazifasidan foydalaniladi. Tildagi eng kichik birliklar fonemalar bo`lib, ular nutqda eng kichik segmentlar, ya`ni tovushlarda namoyon bo`ladi. Shu sababli fonologiya ikki pog`onaga bo`linadi. Eng kichik birliklar bo`lgan fonemalarni tekshiruvchi pog`onasi segmental fonologiya deb yuritiladi. Fonemalardan katta yoki yuqori bo`lgan til birliklariga (so`z, morfema, gap) tegishli bo`lgan fonologik xususiyatlar suprosegmental fonologiyada tekshiriladi. Segmental fonologiya ba`zan «fonematika», «fonemika» yoki «fonologiya» deb ataladi.

Suprosegmental fonologiya esa ba`zan «prosodika» (N.S.Trubetskoy termini) deb ataladi. Tovushlarda namoyon bo`luvchi fonemalar «segment fonemalar, bo`g`in, urg`u va intonatsiyaning ma`noni farqlash funksiyalari «supersegment fonemalar» yoki «prosodema» lar deb yuritiladi. Ba`zi tilshunoslar (V.A.Vasil`ev) fonetika va fonologiyaning uzviy bog`liqligini hisobga olib,

segmental fonetika va fonologiyani, suprasegmental fonetika va fonologiyani tan oladilar. Bunda fonetik va fonologik birliklar o'rtasida quyidagicha munosabat o'rnatiladi:[8]

Fonetika	Fonologiya
Segmental fonetika	Segmental fonologiya (fonemika)
Tovush	Fonema
Suprasegmental fonetika	Suprasegmental fonologiya (prosodika)
bo`g`in	sillabema
urg`u	aktsentema
intonatsiya	intonema

Bunda fonologik jihatdan so`z urg`usi-so`z aktsentema («slovoaktsentema»), sintagmatik urg`u-«sintagmoaktsentema», fraza urg`usi-«frazoaktsentema» deb yuritiladi. Faqat ovoz tonining o`zgarishi (past, balandligi) bilan bog`liq bo`lgan ma`no ajratuvchi birlik tonema deb ataladi.

Ye.D.Polivanov bo`g`inning fonologik jihatdan tildagi so`zlarning ma`nolarini farqlash funksiyasi ba`zi tillarda, xususan dungan tilida bor ekanligini hisobga olib, bo`g`inni uch tomonlama qarashni tavsiya etgan edi.

Sillabema (ya`ni bo`g`in tarkibi, ularning ma`lum unli va undoshlardan va bo`g`in ajratish xususiyatiga ega bo`lmagan sonantlardan tashkil topganligi);

Tonema (ya`ni ovoz tonining ohangi yoki bo`g`in intonatsiyasi);

Aktsentema (ya`ni bo`g`indagi urg`uning kuchli va kuchsizligi).

Sillabema va tonema tushunchalarini fonologik jihatdan muzikal urg`uga (tonga) ega bo`lgan tillarda qo`llash mumkin. O`zbek va nemis tillarida kuchli dinamik urg`u mavjudligi tufayli fonologik jihatdan aktsentema tushunchasini qo`llash mumkin. Bunda olma-olma, to`xta-to`xta so`zlari urg`uning o`rni va bo`g`inda urg`uning kuchi orqali farqlanadi. Bunday oppozitsiya tushunchasi til birliklariga (fonemalar) nisbatan ishlatilsa, urg`u va intonatsiya til birliklari bo`lmagani tufayli oddiy kontrast, qarama-qarshi qo`yish tushunchasi ishlatiladi.

Tovushlar, bo`g`in strukturasi,urg`u va intonatsiyani avval eksperimental -fonetik metodlar (rentgenografiya, spektroografiya, ostsillografiya kabi) yordamida chuqur tekshirish ularning artikulyatsion, akustik va eshitib his qilish tomonlarini chuqur o`rganishga olib keladi. Ana shundagina ularning funktsional tomonlarini o`rganish, ya`ni fonologik jihatdan qarash uchun ma`lum yo`l ochiladi.

Fonetika va fonologiya o`rtasidagi zaruriy bog`lanishning nazariy va amaliy qimmatini yana ham oshadi. Ularning bir-birini to`ldirishi, bir-biriga yordam berishi yanada ravshanroq ko`zga

Fall – Wall (yiqilmoq – qirg`oq); Fuß – Wut (oyoq – qahr-g`azab);

fahl – Wahl (chang – tanlamoq); Folge – wohnen (xulosa – yashamoq);

fegen – wegen (supurmoq – uchun, davomida); voll – wollen (to`la – xoxlamoq);

fühlen – wühlen (his qilmoq – kovlamoq); Fäden – wählen (ip – tanlamoq);

fünf – wüsste (besh – bilmoq); Fälle – Welle (hodisa – to`lqin);

Feld – Welt (dala – dunyo); vöellig – Wölfe (to`la – bo`rilar).

Bunday mashqlarni bajarish o`quvchilarda tovushlarni to`g`ri eshitish malakalarini shakllantiradi. Sodda gaplar lolinadi va ulardagi harflar, tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish uchun o`quvchilarning intonatsiyasi to`g`rilanib boriladi.

Masalan: Ich schreibe.

Schreibe ich?

Ja, ich schreibe.

O`quvchilarda yozuv ko`nikmasini shakllantirish orqali ham fonetikani o`rgatish mumkin. Buning uchun o`quvchilarning quloqlariga ohista so`zlarni aytish kifoya qiladi. Masalan: Sonn`abend ; will ... ich ; hat ...er.

Nemis tilida unililarni talaffuz qilish qiyinchilik tug`diradi.

Ohr, sehr, Uhr, gehen, Bahn.

Nemis tilidagi r tovushini o`rgatish uchun quyidagi mashqlarni bajarish talab etiladi.

[ɑ:] Art, zart; [a] hart, warten;

[ɛ:] Bär, Ähre ; [ɛ] Herr, Herz;

[e:] Ehre, werden, Pferd;

[I] Hirt, irren.

O`quvchilar nemis tilidagi s harfi so`z boshida unlilardan oldin kelsa o`zbek tilidagi z kabi talaffuz qilinishini unutib qo`yishadilar. Shu bois bu harflarni qoraytirib, yoki ajratib ko`rsatish talab etiladi. Shunda o`quvchilar bu harf sh, yoki z kabi talaffuz qilinishini eslab qoladilar. Masalan: [ʃ]: Sonne; sehen Tisch; Schal .

Talaffuzni o`rgatish usullari

Talaffuzga nutq namunalari, jummlar, so`zlar asosida yoki ayrim tovushlar ustida ishlash yo`li bilan o`rgatish mumkin. Zamonaviy metodikada talaffuzga o`rgatish nutq faoliyatiga o`rgatish asosida tashkil qilinishi munosabati bilan nutq namunalari bilan ishlash samarali natija bermoqda. Nutq namunalari asosida talaffuzga o`rgatishda ikki yo`ldan foydalanish mumkin. Qaysi yo`lni tanlab olish tovush guruhlariga bog`liq.

Birinchi guruh-ona tili tovushlariga yaqin tovushlar bilan ishlaganda ularni nutq namunasi tarkibidan ajratib olinmaydi. O`quvchilar bu tovushlarni nutq namunasi tarkibida taqlid qilish usuli bilan o`zlashtirib oladilar.

Ikkinchi va uchinchi guruhlariga mansub bo`lgan - ona tili tovushidan farq qiladigan va ona tilida yo`q bo`lgan tovushlar ustida alohida ishlash zarur. Muayyan tovush o`qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi, o`quvchilar bu namunalarni anglab olgach, tovush namunadan ajratib olinadi. Ajratib olingan tovush tahlil qilinadi, artikulyatsiyasi tushuntiriladi. Taqlid qilish asosida jiddiy mashq qilinadi. U yana namunaga qo`shiladi va mashq qilinadi. So`ngra asosiy ish intonatsiya, xususan, jumla urg`usi, pauza va ohang ustida olib boriladi.

Ikkinchi va uchinchi guruhlariga mansub tovushlar ustida quyidagicha ish olib boriladi;

- 1) tovushni namoyish qilish;
- 2) nutq organlarining talaffuz chog`idagi harakati va holatini tushuntirish;
- 3) farqlashga oid mashq bajarish;
- 4) yangi tovushni o`quvchilar tomonidan talaffuz qilish.

Olmon tili talaffuziga o`rgatish ikki usul bilan amalga oshiriladi.

1. Taqlid qilish (imitatsiya) usuli.

2. Tushuntirish (fonetik, analitik) usuli.

Taqlid qilish ikki bosqichdan iborat: a) nutq namunasini tinglash (o`qituvchidan, magnitafondan, kompyuterdan), b) tinglaganni takrorlash. Takrorlash jarayonida o`quvchilar o`z talaffuzlarini tinglayotgan nutq namunasiga o`xshatishga harakat qiladilar. Bu jarayonning ahamiyati ayniqsa tinglab tushunish uchun muhimdir.

Talaffuzga o`rgatish jarayonida qaysi usuldan foydalanish o`quvchilarning yoshi, bilimi, qiziqishiga bog`liq. Talaffuzga o`rgatish usullarining qaysi biridan foydalanishni aniqlash uchun olmon tili tovushlar tizimini o`quvchilar ona tili tovushlari tizimi va hatto o`quvchilarning shevalari bilan taqqoslash kerak.

Ma`lumki, olmon tili va ona tilini qiyosiy o`rganish natijasida olmon tili tovushlarini ta`lim maqsadlariga muvofiq guruhlarga bo`linadi.

Birinchi guruhga artikulyatsion va akustik jihatdan ona tili tovushlariga yaqin keladigan tovushlar kiritiladi. Ularni o`quvchilarga tanishtirishda maxsus ish olib borilmaydi. O`quvchilar bu tovushlarni muallimlari yoki suhondonga taqlid qilish yo`li bilan o`zlashtirib oladilar. O`zbek o`quvchilari uchun olmon tilining quyidagi tovushlari qiyinchlik tug`dirmaydi. Unlilar: [a: e: u: i:]; Undoshlar: [m n k g x].

Ikkinchi guruhga umumiy xarakteristikasi bilan ona tili tovushiga o`xshash, lekin ona tili tovushlaridan muhim tomonlari bilan farq qiladigan tovushlar kiradi. Ushbu tovushlarni o`quvchilar ona tili tovushlariga uxshatib yuboradilar. Shuning uchun ham bu guruhga kiruvchi tovushlar bilan o`quvchilarni tanishtirishda barcha usullardan, ya`ni artikulyatsiya`ni tasvirlash, olmon tili va ona tili tovushlarini bir-biri bilan taqqoslash, nutq organlari harakatini ko`rsatish, taqlid qilish va boshqalardan foydalanish lozim. Bu guruhga olmon tilining quyidagi tovushlari kiradi. Unlilar: [o: y: E]; Undoshlar: [t f v j].

Uchinchi guruhga ona tilida artikulyatsion va akustik jihatdan o`xshashi bo`lmagan tovushlar kiradi. Bu tovushlar bilan ishlash jarayonida o`quvchilarda

yangi artikulyatsion baza yaratish zarur. Bu guruhga olmon tilining quyidagi tovushlari kiradi. Unlilar: [Y Ó œ]; Undoshlar: [pf ts tʃ R ç].

Talaffuzga o`rgatish materiallari bilan ishlash. Olmon tili talaffuziga o`rgatishda til materiallari bilan olib boriladigan ishlarni turlicha tashkil qilish mumkin.

1. Har bir tovushni alohida o`rganish, ya`ni xususiylikdan umumiylikka borish.

2. Olmon tili fonetik bazasi asosida talaffuzga o`rgatish, ya`ni umumiylikdan xususiylikka qarab borish.

Ikkinchi usul tejamli bo`lganligi uchun ko`plab metodist va fonetistlar ushbu yo`lni tavsiya qiladilar. Shuning uchun ham ushbu usulni qisqacha tavsiflaymiz. Buning uchun eng avvalo fonetik baza tushunchasini oydinlashtirib olish lozim.

IKKINCHI BOB YUZASIDANT XULOSALAR

Umuman, o`qituvchi o`zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg`urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo`lsa-da, xabardor bo`lishi, kerak bo`lganda, o`z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o`qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og`zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo`lmaydi.

Har bir tilda grammatik qoidalarning yoritilish darajasiga qarab ilmiy va an`anaviy maktab grammatikasi yaratiladi. Grammatikaning morfologiya va sintaksis bo`limlari o`zaro zich bog`langan. Fonetikani ba`zi olimlar grammatikaga kiritmaydi, mustaqil bo`lim deb hisoblaydilar, ba`zilar grammatika tarkibiga kiritadilar. Ayrim amaliy mulohazalarga ko`ra fonetikani ham grammatikaga qo`shadilar.

UMUMIY XULOSALAR

Fonetika tilshunoslikning mustaqil bir bo`limi hisoblanadi. U xususiy va umumiy fonetika bo`linadi. Tilshunoslik faniga kirish sohasida umumiy fonetika o`rgatiladi.

Chet el tilshunosligida keng tarqalgan fonologiya nazariyalari quyidagilardir:

1. Praga lingvistika maktabining fonologiya nazariyasi jahonda eng dong chiqargan hisoblanadi. Uning vakillari Praga fonologiya maktabi nazariyasining asoschisi mashhur olim N.S. Trubetskoy (1890-1938), R. Jakobson, V. Matezius, B. Trnka, I. Vaxek va boshqalardir.

Bu maktabning xususan, N.S. Trubetskoyning fonologik nazariyasi va metodlari bir necha tillarni ilmiy o`rganishga tatqiq etilgan va hozirgi davrda ham qo`llanib kelinmoqda. Praga fonologiya maktabi fonologik oppozitsiyalar klassifikatsiyasi, fonologik neytralizatsiya, korrelyasiya, fonemalarning birikmalari va boshqa qator masalalarni ilmiy tatqiq yetish nazariya va metodlarni taklif etgan. Bu maktabning qarashlari jahon tilshunosligida ham keng o`rin olgan. Shu sababli ulardan ba`zilarini yuqorida ko`rsatib o`tildi.

2. London fonologiya maktabi va uning yirik namoyondasi D. Jounz tomonidan taklif yetilgan fizik (akustik) fonologiya nazariyasi (Angliya). Bu nazariyaga asosan fonema akustik jihatdan bir xil bo`lgan "tovushlar oilasi" hisoblanadi.

3. Distributiv fonologiya nazariyasi (AQSh). Bu nazariyaga asosan fonema akustik jihatdan bir xil bo`lgan "tovushlar sinfi" yoki "allofonlar sinfi" deb ta`rif beriladi.

4. Dixotomik fonologiya nazariyasi (AQSh) ham keng tarqalgan bo`lib, u jahon tillaridagi fonemalarni o`n ikki juft binar farqlanish belgilari asosida tasnif yetish metodini taklif yetdi. Biroq nazariyadagi ba`zi kamchiliklar, xususan, barcha farqlanish belgilarining binar, ya`ni ikkitadan qarama-qarshilik asosida berilgani,

ularni spektral analiz qilish natijalari barcha tillar uchun bir xil yemasligi, terminlarning no-qulay va tushunarsizligi kabi qator masalalar tuzatishlarni talab qiladi. Bu kamchiliklarni tuzatish natijasida, uni ko'pgina tillarning fonemalar sistemasi-ni tadqiq qilishda qo'llanib kelmoqda.

Boshqa keng tarqalmagan fonologik nazariyalar quyidagilardir:

5. Makro va mikrofonema nazariyasi. AQSh tilshunosi U. Tuodl tomonidan 1935 yilda taklif etilgan.

6. Glossematik fonologiya nazariyasi (Daniya).

7. Ikki pog'onali fonologiya nazariyasi.

8. Generativ fonologiya nazariyasi (AQSh).

Bu fonologiya nazariyalari ichida alohida qarashlar va oqimlar ham bor. Ularda tilning fonologik sistemasini juda mavhum tadqiq qilish va sxematik ravishda qarash hollari mavjud. Bunday kamchiliklar ularni aniq tillarga tatbiq yetishda qiyinchilik tug'diradi. Haqiqiy fonologiya nazariyalari chuqur ilmiy asoslangan va tillarni tadqiq yetishda qulay metodlarni taklif yetgan bo'lmog'i lozim.

Insonning nutq faoliyati sezgi a'zolari asosida his qilinuvchi nutq birliklari - tovush yoki tovushlar tizimi vositasida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushi o'zida uch jihatni birlashtirgan murakkab nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu vaziyatlar tilshunoslikning fonetika qismida ko'rib chiqiladi va u nutq tovushini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, tovushlarning akustik xossasini va til sohiblari tomonidan qabul qilinishini ham o'rganadi. Fonologiya atamasi tilshunoslikda XX asr ohirida nutq tovushining fiziologikakustik tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash natijasida paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining strukturaviy va funksional qonuniyatini o'rganuvchi soha bo'lib, semiotik tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion jihatda o'rganadigan fonetikadan farqlanadi. Nemis adabiy tili undoshlar sistemasida 20 fonema bordir. Ular tovush paychalarining harakati va holatiga, nutq organlari ishtirokiga, artikulyasiya (paydo bo'lish) usuliga ko'ra tavsiflanadi. O'zbek va nemis tillarining konsonantlar sistemasidagi alohidaliklarni hisobga olgan holda ingliz tili

tovushlarini uch guruhga bo'lish mumkin: 1) o'zbek tilidagi tovushlarga o'xshash nemischa tovushlar; 2) o'zbek tilidagi tovushlarga yaqin, lekin qisman farq qilinuvchi nemis tili tovushlari; 3) o'zbek tilida uchramaydigan nemis konsonantlari. Mazkur tillar konsonantlar sistemalarini qiyosiy o'rganish tillararo fonetik interferensiyaning vujudga kelishini va bu xodisaning o'zbek auditoriyasi talabalarining inglizcha nutqidagi xatolariga sabab bo'lishini belgilab beradi.

O'zbek auditoriyasi talabalarining nemis tilidagi nutqida quyidagi xatolar bo'ladi: 1) nemis tili undoshlarining akustik xususiyatlariga oid. Bu belgi bo'yicha nemis tili jarangsiz undoshlari jaranglilardan kuchliroq talaffuz qilinadi. Tovushlarning mazkur xususiyati bo'yicha talabalarning ona tilida daraxt, hursand va boshqa so'zlarning talaffuzida oxirgi tovushlari tushib qolishi xodisasini o'quvchilar ingliz tiliga ko'chirishi ro'y beradi; 2) yumshoq tanglayning ishtiroki bo'yicha o'zbek tili nutqida burun tovushlari joy almashish xolati ko'p uchrashadi (masalan, kuylak o'rniga ko'ynak) va mazkur xodisa ularning ingliz tilidagi so'zlashuvida ro'y berib, xatoga sababchi bo'ladi; 3) cho'ziqlik belgisiga oid. Nemis tilida cho'ziglik xususiyati undosh konsonantlarga xos emas. Ammo so'z tarkibida ikki va undan ortiq bir xil tovushlar kelganda, ular qo'shilib, cho'ziq undosh tovushi talaffuz qilinishi mumkin. Bu holatga talabalar ona tilida "jajji, xuddi" kabi so'zlardagi ikkita jj, dd xarflari bilan ifodalangan bitta cho'ziq tovushning mavjudligini misol qilsa bo'ladi. Bundan boshqa talaffuz xatolari tovushlarning hosil bo'lish o'rnini va usuliga oid ham ro'y beradi.

O'zbek auditoriyasi talabalariga nemis tilini o'rgatishda lingvodidaktika va metodikaning qonuniyat va uslublaridan samarali foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishning eng qisqa yo'lidir. O'quv jarayoniga tavsiya etilgan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarining nemis tili undosh tovushlarini o'zbek auditoriyasi talabalariga o'qitishda qo'llanilayotgan ushbu o'quv qo'llanmalarini taxlil etish mashqlar tizimini yaratishga zamin bo'ladi. O'tiladigan nemis tili fonetikasi predmetining namunaviy dasturida o'qitishning asosiy uslubi qilib zamonaviy lingvodidaktikada ahamiyat berilgan kommunikativ usul tavsiya etilgan. O'quv jarayonida xorijiy darsliklardan keng foydalaniladi. Ularda

auditoriya mashg'ulotlari uchun mavzular, mustaqil ishlar bo'yicha topshiriqlar, qoidalar hamda shu qoidalarga asoslangan misollar o'rin olgan turli mashqlar kiritilgan. Tillararo interferensiyaga oid tovushlar akustik va artikulyativ yondashuv qoidalariga binoan tushintirilishi tavsiya etilgan. Fonetik zaryadkada qatnashish va laboratoriya mashqlari talabalar tomonidan individual ravishda bajarilishi ko'zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Awasbajew N. Phonetik der deutschen Gegenwartssprache. –Taschkent. 1978.
2. Бодуэн де Куртене: И.А.. Избранные труды по общему языкознанию. Т. I. –М., "Наука", 1963, с. 41-46.
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. Глава «Фонетика и фонология» по любому изданию учебника.
4. Кочергина В.А. Введение в языкознание. - 2-е изд. - М.: Изд-во Московск. ун-та, 1991. - С.10-71.
5. Головин Б.Н. Введение в языкознание. Раздел «Фонетика» по любому изданию учебного пособия.
6. Кузнецов П.С. К вопросу о фонологии ударения // Реформатский А.А. Из истории отечественной фонологии. - М.: Наука, 1970. - С.360-367
7. Реформатский А.А. Язык, структура и фонология // Реформатский А.А. Из истории отечественной фонологии. - М.: Наука, 1970. - С.516-523.
8. Patapowa R. Grundlehre der theoretischen Phonetik des Deutschen. – Moskau. 1988.
9. Основы фонологии. М., 1960. (Послесловие А.А. Реформатского). Трубецкой. Н.С. Пражский лингвистический кружок. М., Прогресс . 1975.
- 10.Шерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность., –М., изд. "Наука", 1974, с. 132.
- 11.Wejsalow F. Theoretische Phonetik des Deutschen. Baku. 1989.
- 12.Zacher O. Deutsche Phonetik. 2. Aufl. Leningrad. 1969.
- 13.Helga Dieling/Ursula Hirschfeld. Phonetik lehren und lernen. Langenscheidt. 2000.
14. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. Ред. В.Н.Ярцева. - М.: Советская энциклопедия, 1991. - Статья «Фонология» (с. 555-557).

Тест №1.

1. Der Akzent ist:

- a) Veränderung der Melodie,
- b) Hervorhebung einer Silbe des Wortes,
- c) Veränderung der Laufstärke.

2. Den deutschen Wortakzent nennt man:

- a) grammatisch,
- b) rhythmisch,
- c) morphemgebunden

3. Wozu verwendet man den Begriff „Akzentgrad“:

- a) um den Akzent zu modellieren,
- b) um Zusammensetzungen von einfachen Wörtern zu unterscheiden,
- c) um die Aussprache zu üben

4. Welche Funktion aus den genannten ist dem deutschen Wortakzent eigen:

- a) kommunikative,
- b) quantitative,
- c) konstitutive

5. Was muss man in der betonten Silbe ändern, um den Akzent musikalisch zu nennen: -

- a) die Lautqualität,
- b) die Tonhöhe.
- c) die Intensität

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR:

1. Welche Buchstabe fehlt?

So erfüllte i... mir in den nä...sten Tagen man...en Wunsch.

A) ch B) st C) z D) x

2. Welche Buchstabe fehlt?

Ich d...nke mir ein schön...s G...sch...nk für dich aus.

A) ie B) ei C) e D) a

3. Welche Buchstabe fehlt?

Rolfs Eltern ...aben eine Eigentumswo...nung ausser...alb der Stadt.

A) x B) ch C) h D) z

4. Welche Buchstabe fehlt?

Am nächsten Abend traf ...ch m...ch m...t dem Makler.

A) a B) ei C) e D) i

5. Welche Buchstabe fehlt?

...or kurzem ...erbrachte ich mit meinem Kameraden etwa ...ier Stunden im Kulturpark.

A) f B) v C) w E) tz

6. Welche Buchstabe fehlt?

Deine Hände sind je...t schmu...ig. Ich habe Mü...e zu Hause vergessen.

A) tz B) z C) zt D) s

7. Finden Sie ein Wort mit dem Fehler.

A) läuft B) Häuser C) Räuber D) Läute

8. Welches Wort gehört zur Reihe nicht.

A) Sonne B) der Himmel C) die Erde D) die Schulsachen

9. Setzen Sie richtig Buchstabe ein.

Zuer...t essen wir Suppe,dann Fleisch und Gemü...e, zuletzt gab es Ob...t.

A)z B)x C)s D)ss